

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT MILLIY RAQS VA XOREOGRAFIYA
OLIIY MAK TABI**

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrasi

“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi IV kurs talabasi

G’ofurov Nurbek Jo’rayevichning

**“O‘ZBEK ERKAKLAR RAQSINING LOKAL
XUSUSIYATLARI”**

mavzuidagi

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

**“San’at nazariyasi va tarixi”
kafedrasi mudiri, dotsent**

_____ **M.SH.Murodova**

“ _____ ” 2018 yil.

**Ilmiy rahbar: “San’at nazariyasi
va tarixi” kafedrasi professori**

_____ **N.K.Kasimov**

“ _____ ” 2018 yil.

Toshkent – 2018

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I-BOB. O'zbek erkaklar raqsi tarixi.....	12
1.1. O'zbekiston hududida erkaklar raqsining vujudga kelishi va shakllanishi.....	15
1.2. O'zbek raqs maktablarida erkaklar raqsining o'ziga xos lokal xususiyatlari.....	31
II-BOB. O'zbek erkaklar raqsining bugungi kuni va istiqboli.....	43
2.1. O'zbek erkaklar raqsida milliy qadriyatlarning ifodalanishi.....	56
2.2. O'zbek erkaklar raqsining muammolari.....	67
Xulosa.....	70
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	73
Ilovalar.....	78

KIRISH

*Raqs shunday san'atki, u xalqning,
har bir millatning, ma'naviy hayotini ko'rsatib
turadigan Olloh taolo yaratgan bir mo'jiza¹.*

Abdurauf Fitrat

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Bu kabi amaliy ishlar ayni paytda ham davom ettirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4956-sonli farmoni² 4-bandiga asosan «O'zbeknavo» estrada birlashmasi va «O'zbekraqs» milliy raqs birlashmasi negizida «O'zbekkonsert» davlat muassasasi tashkil etilib, muassasa tarkibida yangi bo'lim – Raqs va xoreografiya san'ati faoliyatini rivojlantirish va tashkil etish bo'limi faoliyati yo'lga qo'yildi. Shu bilan bir qatorda 2017-yil 22-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi "O'zbekkonsert" davlat muassasasi tomonidan **"Milliy raqs san'atining rivojlanish tarixi, dolzarb muammolari va zamonaviy konsepsiyalari"** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya, hamda 2018-yil 26-yanvarda **"Buxoro jilolari"** deb nomlangan raqs tanlovi o'tkazildi. Bu o'zbek milliy raqs san'atining kelajakda yanada rivoj topishi uchun berilgan katta imkoniyatlardan biridir. Yana shunday milliy raqsimizni yuksalishiga keng yo'l ochadigan qaror Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 31-mayda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish

¹ O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2017.06.10 № 41

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4956-sonli farmoni.

va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3022-sonli qarori³ qabul qilindi. Bu qarorda **O'zbek milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san'at rivojiga katta hissa qo'shgan taniqli san'atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko'rik-tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallagan yoshlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash** to'g'risida batafsil bayon qilingan.

Bunday imkoniyatlar bizning milliy raqs san'ati sohasida ijod qilayotgan san'atkorlarga, yosh ijodkorlarga, ulkan imkoniyat eshiklarini ochib berdi.

Mavzuning dolzarbligi. Tarixdan bizga shu narsa ma'lumki xalqimiz erkaklar raqsini doimo sevib tomosha qilishgan, biroq bugunga kelib esa erkaklar raqsi biroz tomoshabinlar nazaridan chetda qolmoqda. Bunga sabab nima? Bu masalani o'z bitiruv malakaviy ishimda yoritishga harakat qildim.

Shu bilan bir qatorda o'zbek erkaklar raqs san'ati, tarixi, namoyondalari va ular ijro etgan raqslar hamda bugungi kunga kelib saqlanib qolgan merosiy raqslar qay darajada ijro etilayotganligi ham ko'rib chiqiladi.

Mavzuning yana bir dolzarbligi shundaki o'zbek erkaklar raqsi boshqa xalqlar raqslaridan qanday harakatlari bilan farqlanishi, kiyimlari, ijro mahorati va shu kunda yurtimizda yashab ijod qilayotgan raqs ijrochilari haqida ma'lumotlarni ham ochib beradi.

Yurtimizdagi barcha viloyatlarimizda o'ziga xos erkaklar raqsining lokal xususiyatlari mavjud, lekin bizgacha yozilgan ilmiy ishlarda asosan uchta maktab Farg'ona, Xorazm, Buxoro raqslari haqida to'xtalib o'tilgan, biroq Qashqadaryo va Surxondaryo erkaklar raqslari haqida deyarli ma'lumotlar yo'q. Ammo voha raqslari butkul o'zgachaligi, ulardagi shijoat o'zbekona g'urur aks etgan raqslar soyada qolib ketmoqda. Yana shu narsa borki, bu raqslarni butun umri davomida

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3022-sonli qarori.

ijro etgan ijodkorlarni hozirda kamdan kam hollarda esga olishmoqda. Qolaversa, ular sahnalashtirgan raqslar hali hanuz ijro etilib kelinmoqda. Bu bizning milliy qadriyatlarimizning avloddan-avlodga o'tib kelayotganligining bir dalilidir, biroq bunday nodir qadriyatlarimizning saqlanib kelinayotgani haqida kamdan-kam hollarda yoritilmoqda. Jumladan, respublikamizda o'tkaziladigan har bir bayram, xalq sayllari borki, unda bizning raqqoslar doimo o'zlarining mardonavor raqslari bilan barchani qoyil qoldiradi, xususan 2017 yilda Abdulla Qodiriy nomidagi istirohat bog'ida o'tkazilgan "Navro'z" xalq saylida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Erkin Qaxxorov tomonidan sahnalashtirilgan "Sho'x yigitlar" raqsi to'g'risida birorta ommaviy axborot vositalari batafsil yoritmadi. Bunga sabab nima? OAV xodimlarining o'zbek erkaklar raqs san'atiga bee'tiborligimi, yoki bizning oliy maktabni tamomlab qo'llariga diplom olib chiqayotgan "san'atshunoslarimiz" o'z vazifalarini bajarmayaptimi? Bu ham yoritalayotgan mavzuni muammolaridan biridir.

Erkaklar raqsi bilan bog'liq muammolarni hal etilishi o'ziga xos an'analariga ega bo'lgan mazkur ulkan yo'nalishni raqsshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish, tarixiy yo'li, taraqqiyoti, yangi badiiy jarayonlardagi o'rni, rivojlanish tamoyillari hamda istiqboli borasida muayyan ilmiy tadqiqotlar yaratishni taqozo qilmoqda. Mazkur muammo san'atshunoslik fanida hozirga qadar o'rganilmagan ulkan bo'shliq bo'lib, uni to'ldirish nihoyatda muhimdir. Bular esa tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi

Bundan tashqari yurtimizda birorta ham yigitlar raqs ansambli yo'q, nega? Bu ham juda katta muammo, lekin shu kungacha javobsiz qolmoqda.

Bizning san'atimizda yana bir oddiy ko'ringani bilan lekin juda muhim bo'lgan ibora "Raqs"mi, yoki "Oyoq o'yin"⁴mi shu to'g'risida ham ba'zi bir ma'lumotlarni keltirib o'tamiz. Bitiruv malakaviy ishida o'zbek erkaklar raqsida milliy qadriyatlarning shu kungacha qay darajada saqlanib kelinayotganligi hamda

⁴ Ўзбек тилининг изохли луғати. 1.т. Москва. "Рус тили" нашриёти. Р.1981. 618 б.

istiqlol yillarida o'zbek milliy erkaklar raqsiga qaratilayotgan e'tibor va bunga javoban yosh raqs ijodkorlarining qo'lga kiritayotgan yutuqlari borasida ham so'z yuritiladi.

Ko'rilayotgan bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi yuqorida sanab o'tilgan har bir muammolarga to'xtalib, ularni yetarlicha dalillar asosida yoritib berishdir.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Shu kungacha o'zbek milliy erkaklar raqsi to'g'risida yetarlicha ma'lumotlarga ega emasmiz. Negaki, yozilgan kitoblar va maqolalar aksar hollarda raqossalar haqida bo'lib erkak raqqoslarimiz haqida juda kam manbalar mavjud. O'zbek milliy raqs san'ati tarixi teatrshunoslik va raqsshunoslik fani yo'nalishlarida o'rganilgan.

O'zbek teatr san'ati tarixini o'rgangan M.Rahmonov⁵, M.Qodirov⁶, T.Qilichev⁷lar monografiyalarida manbashunoslik asosida erkaklar raqsining qadim ildizlari borasida ayrim ma'lumotlar uchraydi.

M.Qodirovning "Yusufjon qiziq ijodi"⁸ kitobida xalq raqslarini o'rganish borasidagi dastlabki tajribalar haqida so'z ketganida erkaklar raqsiga taaluqli ba'zi manbalar ham berilgan. Tojik teatrshunosi N.Nurjanov⁹ kitobida Buxoro va Samarqand erkaklar raqslari bir qadar o'rganilgan.

Bu manbalarga qaraydigan bo'lsak avvalo san'atshunoslik fanlari doktori, professor Mamajon Raxmonovning "O'zbek teatri" kitobiga murojaat qilmog'imiz lozim. Chunki, bu ijodkor o'z kitobida o'zbek milliy teatri bilan bir qatorda milliy raqsimiz haqida ham yetarlicha ma'lumotlar berib o'tgan. Bu ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'zbek milliy erkaklar raqsi juda qadim zamonlardanoq

⁵ Раҳмонов М: Ўзбек театри тарихи. Қадим замонлардан XIX асрга қадар. Тошкент. Фан. 1975. 345 б.

⁶ Қодиров М: Анъанавий театр тарихи. Тошкент. Ғ.Ғулом нашриёти. 1975. 320 б. Қодиров М: Темур ва темурийлар даврида томоша санъатлари. Тошкент. Фан. 1997. 240 б.

⁷ Тўра Қиличев: Хоразим халқ театри Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1988. 17-18-19 б.

¹⁰ Қодиров М: Юсуфжон қизик ижоди. Тошкент. Ўзбекистон. 1969. 32 б.

⁹ Нуржанов Н: Таджикский театр. (Под ред. проф. Г.Гояна). М. Искусство. 1988. 262 с.

rivojlangan. Bunga misol tariqasida shu kitobda berilgan ba'zi bir dalillarni keltirishimiz mumkin. Jumladan, “eramizdan oldingi 2-1 ming yilliklarda Farg‘onaning Saymalitosh tog‘i g‘orida chizilgan suratlar ichida o‘yinga tushayotgan dumlik kishilar guruhi ham bor. Ular ikki kishi - ikki kishi bo‘lib, birlariga yuzma – yuz turib, qo‘llarini ko‘tarib ehtiros bilan o‘ynamoqdalar”¹⁰. Bu manbalardan shu narsa ma’lumki, qandaydir bir marosim vaqtida ijro etilayotgan raqslar jarayoni tasvirlangan. Ammo shu narsa aniq emaski bu ijrochilar erkakmi yoki ayol kishimi noaniq. Ammo mantiqan taxmin qiladigan bo‘lsak bular ikki kishidan bir biriga qarab o‘ynamoqda, bundan shu narsa ma’lumki, bugungi kunda ham bizning to‘y xashamlarda yoki bayramlarda yigitlar bilan qizlar xuddi shu tarzda bir-birlariga qarab o‘ynashadi. Bu mantiqdan kelib chiqqan holda esa rasmdagilarni ayollar va erkaklar yonma yon birgalikda raqs ijro etmoqda deyishimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda M.Raxmonov o‘z kitobida bizning milliy erkaklar raqsi haqida juda ko‘p ma’lumotlarni qadim zamonlardan to XX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni yoritib o‘tgan.

Yana bir raqqsshunos olimi L.Avdeyeva o‘zining “O‘zbek milliy raqs tarixidan”¹¹ deb nomlangan kitobida o‘zbek erkaklar raqsi tarixi haqida qisman to‘xtalib o‘tgan, lekin mukammal emas. L.Avdeyeva o‘z kitobida XX asrning taniqli raqqoslaridan Y.Q.Shakarjonov, U.O.Komilov, I.Oqilov haqida batafsil to‘xtalgan.

I.Oqilovning samarali ijodi to‘g‘risida M.Ahmedov o‘zining “Isoxor Oqilov” kitobida noyob ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Bu kitobda shu davr raqqoslari ijodi haqida I.Oqilov shunday fikr bildiradi: **“Biz bolaligimizda ko‘rgan raqqoslar asosan mehmonxona va bazmlarda o‘ynashardi. Raqqoslar davrada o‘tirgan puldorlar ko‘nglini xushlashgagina intildilar. Oqibatda raqs haqiqiy mazmuni va yaxshi xususiyatlarini yo‘qotib bachkanalashardi.**

¹⁰ Рахмонов М: Ўзбек театри (қадимий замонлардан XVIII асрга қадар). Тошкент. Фан. 1975.й.18 б.

¹¹ Л.Авдеева: Ўзбек миллий рақси тарихидан. Тошкент. 2001. 284 б.

Men o'z raqslarimda va postanovkalarimda ortiqcha bachkanaliklarni olib tashlab, davr tomoshabiniga zavq bag'ishlaydigan joylarini qoldirdim".¹² Bu so'zlar bir ijodkorning beg'araz aytgan gaplaridir. Shu davr raqqoslari ijodi to'g'risida yuqorida nomi tilga olingan kitoblarda bir qancha manbalar mavjud.

Biz XX asr raqs ustalari haqidagi manbalardan qisman ma'lumotlar keltirdik, endi o'rta asrlarda yashab ijod qilgan raqqoslar to'g'risida M.Qodirov o'zining "O'zbek teatri an'analari", "Temur va temuriylar davri tomosha san'atlari" kitoblarida yozib qoldirgan bir biridan qiziq ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, Petrosova E.A. "Karakalpakskiy tanets"¹³ kitobida barpo etilgan qoraqalpoq erkaklar raqsining folklor-etnografik manbalar to'g'risida so'z yuritgan.

Shu bilan bir qatorda xorazm erkaklar raqsi haqida To'ra Qilichev "Xorazm xalq teatri" kitobida shunday ma'lumotlar keltirib o'tadi: "Ibtidoiy xorazmliklarda ham harbiy raqslar tashkil qilingan va zafar tantanalari o'tkazilganligini isbotlovchi qadimiy «lazgi» o'yini hozirgacha o'ynalib, harbiylik xarakterini o'zida saqlab kelayotir. Bu o'yinda raqqos qo'llarini yuqori ko'tarib, asta-sekin barmoqlarini musiqa taktlariga soladi. O'zi esa go'yo raqibiga qaraganday qarab, gavdasini qimirlatmay tutib turadi. Bir necha takt o'tgach, qo'l uchi harakatiga gavda harakatini qo'shadi. Birdan dushmanga tashlanishga o'zini safarbar qilgan jangchiday mayda qadamlar bilan yugurib, qo'l barmoqlarini o'ynatib, qars urishni tezlatib, «lashkarlarning jang qilayotgan holati»ni ifodalaydi. Raqqos o'yin oxirida esa raqibi ustidan qozonilgan g'alaba jadal kurash va mehnat natijalarida erishilganligini qo'l, oyoq, tana va boshqa mimik harakatlarda ifodalab beradi"¹⁴. Shunga o'xshash manbalar O'zbekiston xalq artisti G.Matyoqubovaning "Ofatijon lazgi" kitobida ham uchraydi. Bu manbalarga ko'ra xorazm o'lkasida azaldan raqs rivoj topgan uni faqatgina ayollar emas erkaklar ko'proq ijro etgani, ayollar raqsiga

¹² M.Ахмедов "Исахор Окилов" F.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1975.й. 32-33 б.

¹³ Петросова Е.А. "Каракалпакский танец" Ташкент . 1976.г.Ст.-227.

¹⁴ Тўра Қиличев "Хоразм халқ театри" Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1988.й 17-18 б.

qaraganda Xorazmcha erkaklarning raqsi ko'pligini va bu raqslarning har biri o'z tarixiga ega ekanligi bilan ajralib turishini yozib o'tgan.¹⁵

Albatta, bu ilmiy ishda yuqorida keltirilgan manbalardan tashqari boshqa qo'llanmalardan ham foydalanilgan, lekin yuqoridagilar asosiysi hisoblanadi.

Ammo ko'p afsus bilan aytish lozimki o'zbek erkakalar raqsi haqida batafsil yozilgan qo'llanma yo'q. R.Karimova tomonidan yozilgan "Doira darsiga mashg'ulotlar" qo'llanmasi ham deyarli raqqosalarga moslashtirilgan. Qo'l oyoq holatlarini inobatga olmaganda. Bunga misol qilib "Mayin sabo", "Qiyg'ir bo'yin" va shu kabi boshqa bir qancha raqs harakatlari o'z nomi bilan ayollarga mosligi ko'rinib turibdi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, o'zbek erkaklar raqsi tarixi qisman bo'lsada o'rganilgan, ammo raqs harakatlar amaliy tomonlama boru, lekin nazariyasi belgilanib yozilmagan. Bu albatta o'zbek erkaklar raqsining og'riqli tomoni. Biz yozilayotgan ilmiy ishda bu muammoga ham alohida to'xtalib o'tamiz. Shunday ekan bu mavzuni har tomonlama o'rganib shu kungacha yoritilmagan tomonlarini ochishga harakat qilamiz.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

Markaziy Osiyoda erkaklar raqsining rivojlanish yo'llarini o'rganish.

O'zbek erkaklar raqsi tarixini va lokal xususiyatlarini o'rganish, o'zbek xoreografiya san'ati doirasida o'rnini, ahamiyatini ko'rsatish, merosiy raqslarni tiklash, yoritish va ularni mutaxassislariga, kelajak avlodga bekamu-ko'st yetkazish,

- O'zbek erkaklar raqsida milliy qadriyatlar qay darajada saqlanib kelinayotganligini aniqlash;
- O'zbek erkaklar raqsining surati va siyratini, badiiy uslublarini ko'rsatish hamda o'rganish, ifodalanishini tahlil etib ta'riflash;

¹⁵ Г.Матёкубова "Офатихон лазги" Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент.1993. 47 б.

- O'zbek erkaklar raqsida ijro etilayotgan raqs harakatlarini musiqa, ritmlar, bilan uyg'unligini o'rganish va izohlash;
- O'zbek erkaklar raqsining mahalliy xususiyatlarini keng ko'lamda yoritish;
- O'zbek erkaklar raqsini boshqa qardosh xalqlar erkaklar raqslari bilan taqqoslash;
- O'zbek milliy erkaklar raqs maktablari va ularning xususiyatini ochib berish;
- O'zbek erkaklar raqsi rivoji uchun xizmat qilgan ijodkorlar faoliyatini o'rganish va yoritish;
- Istiqlool yillarida o'zbek erkaklar raqslarining qay darajada rivojlanganligini ochib berish, ta'rif - tavsiflash;
- O'zbek erkaklar raqsida kuzatilayotgan muammolarni aniqlash;
- O'zbek erkak raqsini jamiyatdagi o'rni, xalqaro miqyosdagi ko'rik, festivallardagi ahamiyatini ko'rsatish;
- Yurtimizda o'zbek erkaklar raqs ansambllari tuzish bo'yicha takliflarni umumlashtirish va yoritish;

Tadqiqot obyekti va predmeti. Mavzuning obyekti alohida voqelik sifatida ko'rib chiqilgan o'zbek milliy raqsi va xususiyatlari hisoblanadi. Predmeti o'zbek milliy erkaklar raqsi tarixi, raqs turlari, lokal taraqqiyot bosqichi va har bir viloyatlarning o'ziga xos erkaklar raqslarining tamoyillarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining o'zbek milliy erkaklar raqsining tarixiy ildizlari lokal xususiyatlari bo'yicha nazariy ko'rib chiqilgan dastlabki izlanish hisoblanadi. O'zbek erkaklar raqs ijrosi haqidagi ko'pgina tushunchalar ilmiy tahlil qilinib, bakalavriat darajasida ko'rib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishda qo'llanilgan metodologiya. Ushbu ishda tarixiy – muammoviy, qiyosiy va tadqiqot obyektni estetik tarbiyaviy hamda badiiy ahamiyatini belgilovchi metodologiya qo'llanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Yuqorida belgilangan maqsad va vazifalar quyidagi tuzilish tarkibini belgilab beradi:

Bitiruv malakaviy ish - Kirish, Birinchi bob, Ikkinchi bob, Xulosa, Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati Tayanch so'z iboralari va Ilovadan tashkil topgan.

Kirish qismida tanlangan mavzu dolzarbligi, uning yoritilish darajasi, ishning metodologik tayanchini tashkil qilgan asosiy manbalar, tadqiqotning predmeti, obyekti, ish oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar doirasi hamda malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi ochib beriladi.

Birinchi bob “O'zbek erkaklar raqsi tarixi” deb nomlanib, ikki tarkibiy qismdan tashkil topadi. Bu bobda o'zbek erkaklar raqsi rivojining qisqacha tarixi, o'zbek raqs maktablarining o'ziga xos xususiyat va uslublari hamda estetik ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Malakaviy ishning markaziy qismini tashkil qilgan **Ikkinchi bob “O'zbek erkaklar raqsining bugungi kuni va istiqboli”** deb nomlanib, bevosita qayta qurish davrida, mustaqillik yillarida milliy erkaklar raqsi qay darajada rivojlanganligi va bugungi kunda erishilayotgan yutuqlar hamda yosh raqs ijodkorlarining faoliyatlariga bag'ishlangan.

Xulosada olib borilgan barcha izlanishlar yuzasidan umumlangan fikrlar bayon etiladi va ba'zi fikr-mulohazalar keltiriladi hamda takliflar beriladi.

Ilovada mashhur raqqoslarning rangli fotosuratlar, taqrizlardan nusxalar, san'atshunoslar va raqs bo'yicha mutaxassislar bilan bo'lgan suhbatlar matni, video materiallar va boshqa hujjatlar beriladi.

I-BOB. O'ZBEK ERKAKLAR RAQSI TARIXI

Insonning turli kechinmalarini yorqin va ajoyib kuch-musiqiy ritmika bilan ifodalovchi imo-ishora va harakatlar raqs san'ati deb ataladi. Raqs, chuqur hayajon, kuchli kechinmalarni ifodalaydigan badiiy vosita sifatida vujudga kelgan.

Raqs maftunkor hayajonning tabiiy bo'lishi bilan birga tomoshabinlarga qattiq ta'sir qilib: ular ongida javob hissini uyg'otadi. Lev Tolstoy raqsni eng "zavqbxash" san'at deb atagan edi. Haqiqatdan ham boshqa san'at raqs kabi "zavqlantirolmaydi", artistga taqlid qilib "o'yin tushishga" xohish uyg'otmaydi.

Lekin shuni avvaldan aytish kerakki, har qanday "maqom" ham, his-hayajonni ifodalovchi har qanday harakatlar ham haqiqiy raqs san'ati asari bo'lavermaydi. Chuqur va mazmundor obrazni ifodalovchi, inson haqidagi tasavvurimizni boyituvchi raqslargina san'at asari hisoblanadi¹⁶.

Biz, raqs hammani ham maftun etadi, quvonch va erk hissini uyg'otadi deymiz. Bu kuchli hissiyot ko'p kishilarda paydo bo'lishi mumkin. Lekin bu hissiyotni aks ettiruvchi raqsni yaratish uchun gavda o'z-o'zidan erkin, yengil va go'zal harakatlanishi lozim. Harakatning yengil ritmik suratida va erkinligida, xuddi shulardagina, ruhiy yengillik va erkinlikni ko'rsatish mumkin. Bu barcha xususiyatlar, albatta, boshqa san'atlarga ham aloqadordir. Ammo raqs doimo o'zgacha bo'lib kelgan, bundan keyin ham betakrorligicha qolaveradi. Bu borada raqs tarixidan juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin.

Raqs xalq marosimlari, bayramlarining tarkibiy qismidir. Ular bilan bog'liq holda xorovod va marosim o'yinlari paydo bo'lgan. Xorovodlar asta-sekin marosim o'yinlaridan xalos bo'lib, xalq turmushining ayrim tomonlarini aks ettira boshlagan. Xalq raqsida ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandlik bilan bog'liq mavzular, shuningdek, xalqning bosqinchilarga qarshi kurashi va lirik kayfiyati o'z aksini topgan.

¹⁶ В.Кожин: "Санъат турлари" Тошкент. 1962. 58-60 б.

Markaziy Osiyoda raqs qadim zamonlarda, keyinchalik quldorlik, feodal jamiyat gullagan davrda dunyoga keldi va shakllandi. Bu miloddan avvalgi oxirgi asrlar va milodiy XIV-XVI asrlarning oxirigacha bo'lgan davrda turli xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar avj olgan davrlarda sodir bo'ldi.

“San’atshunos olimlar qadimgi ustalar tomonidan Yunon-Baqtriya podsholigi (miloddan avvalgi IV-III asrlar) davridan milodiy VII-VIII asrlargacha O’rta Osiyo moddiy yodgorliklarida ifodalangan raqs tushayotgan barcha figuralarni o’rganib chiqish jarayonida ularni O’rta Osiyoning son-sanoqsiz sag’analarida mavjud bo’lgan diniy marosimlar ishtirokchilari bo’lmish kohin yoki qohinlar ekanligini aniqlashdi. Antik davr yoki ilk o’rta asrlarga murojaat qilar ekanmiz, Markaziy Osiyo qadimgi ilohlari turli-tuman ekanligi hamda O’rta Osiyo, Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Sharqiy Turkiston, Kavkaz, Sibir, Volgabo’yi, Vizantiya xalqlari madaniy aloqalari keng rivojlanganligini ko’rishimiz mumkin.”¹⁷

XV asrda Markaziy Osiyoda raqs san’ati an’analariga bo’lgan e’tiborni A.Navoiyning bir qancha asarlaridan bilib olishimiz mumkin.

Alisher Navoiy "Mezonul avzon" asarida aruzga kirmaydigan, turk ulusi orasidagina rasm bo’lgan "tuyug‘", "qo‘shuq", "chinga", "muhabbatnoma", "mustahzod", "turkiy" kabi kuylab aytiladigan vaznlar haqida so‘z yuritadiki, ularning barchasi bazmlarda, to‘ylarda o‘ynoqi xalq kuylari va usullari bilan o‘ynab turib ijro etilgan. Husayn Boyqaro o‘zining ko‘pgina she’rlarini qo‘shiq vaznida yozgan bo‘lib, ular xos majlislarda "benazir yigitlar" tomonidan ijro etilgan ekan. Bu to‘g‘rida ham Navoiy guvohlik beradi: "Musiqiy va advor ilmida muloyim ta’blik benazir yigitlar g‘arib nagomat va alxon bila ajib tasarruflar qilib, sultoni Sohibqiron majlisida ayturlarkim, aning muloyimlig‘ va xush oyandalig‘i vasfga sig‘mas va ta’sir va raboyandalig‘i sifatka rost kelmas, balki ul hazratning ixtiroidur..". Bu yerda gap bir to‘p san’atkor xonanda, sozanda va raqqos

¹⁷ L.Avdeyeva. "O‘zbek milliy raqsi tarixidan". 2001.y. 62 b.

yigitlarning Husayn Boyqaro qo‘shiqlari bilan kuylanuvchi va o‘ynaluvchi dasturi haqida borayotir. Shoh saroyidagi naqqoraxonada boshqa ijodiy jamoalar ham bo‘lgan, albatta. Navoiy guvohligining qimmatli tomoni shundaki, Husayn Boyqaro majlislarida nuqul uning o‘zbek tilida yozgan qo‘shiqlarini kuylovchi va shunga mos harakatlar yasab raqsga tushuvchi "benazir yigitlar"dan iborat maxsus guruh faoliyat ko‘rsatganligini tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy shayxlarning afsonasi, makru riyosidan mug‘dayri va mug‘bachalar bazmini ustun qo‘ygan. Bir g‘azalida shunday bayt bor:

Kelurmen xonakohdin dayr sori, bazm tuz, ey mug‘,

Mug‘ona tut surud ey mutribu, ey mug‘bacha, may suz.

Shoirning bir g‘azalidagi quyidagi bayt e‘tiborimni tortdi:

Xush ulki, bazmda aylar teparda urgushtak.

Shoh anda tanbura cholib, Navoiy desa qo‘shuq.

Bunda Navoiy Husayn Boyqaro tanbur chalsa va men qo‘shiq aytsam, bizning ohangimizda raqqos "Urgushtak" raqsini ijro etsa, deb orzu qiladi. Xusayn Boyqaroning tanbur chalgani, nog‘ora usullarida tengsiz bo‘lgani ma’lum. Kim bilsin, balkim Navoiy uning kuyi va usullariga mos qo‘shiq aytgan, shohu vazir kuyiga Sayyid Badr yoki boshqa bir raqqos o‘ynagandir.

Chindanda "Urgushtak" raqsi o‘sha davrda (turk) o‘zbek qavmlari orasida keng rasm bo‘lgan. "Mahbubul-qulub"da Navoiy odil shoh haqidagi fikrlarini ifoda qilib turib: "Andin kechalar atrok zuafosi ishi Urgushtak va atfol varzishi oqso‘ngak", — deb yozadi. Ya’ni, podshoh Husayn Boyqaro odilligi tufayli o‘zbek xotin-qizlarining (atrok zuafosi) ishi kechalari "Urgushtak" raqsida o‘ynash va bolalarining ishi "Oqso‘ngak" o‘yinini bajarishidir degani. Bundan chiqadiki, "Urgushtak" faqat saroylarda emas, xalq orasida ham ijro etiladigan o‘zbekcha raqs ekan. Aftidan, bu raqsning yakka, juft bo‘lib yoki bir to‘da bo‘lib kunduzgi xos

majlislarda va kechasi maydonlarda o'ynaladigan shakllari bo'lgan. Ammo "Urgushtak" ko'pincha kechalari gulxan atrofida yer tepib, aylanib o'ynalgan ko'rinadi.¹⁸

Davr o'tishi bilan har qanday to'siqlarga qaramasdan raqs san'ati o'z yo'lini yo'qotmay rivojlandi. XVI-XIX asrlar mobaynida turli ijtimoiy tuzum va qarama qarshiliklarga duch kelinsada raqs san'atining ommabop turlari xalq orasida ijro etilib, saqlanib qoldi. Asrlar davomida ijrochilar tomonidan sayqal berilib kelajak avlodga yetkazildi.

1.1 - O'ZBEKISTON HUDUDIDA ERKAKLAR RAQSINING VUJUDGA KELISHI VA SHAKLLANISHI

O'zbek erkaklar raqsi Sharqning madaniyat tarixi ming yillar bilan o'lchanadigan Hindiston, Eron, Xitoy singari mamlakatlarida ravnaq va shuhrat topib kelgan raqs san'atidan sira qolishmaydigan darajada yaxshi rivojlangan, barkamol, tomoshaviy san'at turidir.

O'zbek erkaklar raqsining tarixiga qaraydigan bo'lsak, bu borada bizgacha uzoq o'tmishdan yetib kelgan manbalarga nazar tashlashimizga to'g'ri keladi.

Markaziy Osiyoda bronza davrining oxirlarida va ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlari muqaddas "Avesto" kitobida aks etgan. Zardushtiylikning bu muqaddas kitobida raqs san'ati ikki yo'nalishda rivojlanganligi haqida ma'lumot mavjud. "Avesto" qismlarining diniy marosimiy ijro shartlari va uning ijro usullariga e'tibor qaratilsa san'atning boshqa turlari bilan birga raqs san'atining rivojini ilg'ash mumkin. O'zbekiston hududida topilgan turli tasvirlar, arxeologik topilmalar bu yerda raqs juda qadimiyligidan dalolat beradi. Masalan, Navoiy shahridan 60 kilometr shimolida Qora tog' etaklaridagi Sarmishsoy qoyatog'larida jami 100 dan ortiq rasmlar orasida raqsga

¹⁸ Қодиров М: Темур ва темурийлар даврида томоша санъатлари. Тошкент. Фан. 1997. 131-133 б.

tushayotgan ikki kishi tasviri ham topilgan. Olimlarning fikricha bu rasmlar bundan 3 ming yil burun, ya'ni, quldorlik jamiyatiga aloqador bo'lgan davrda toshlarga chizilgan va o'sha davr diniy marosim hamda xalq o'yinlari yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Bu suratlarda raqqoslarning turli kompozitsiyalari bor. Ular ikki kishidan bo'lib turli turkum raqslar ijro etmoqdalar. Chunonchi, 4 raqqosning o'yin xarakteri urush va g'alaba ma'budi Mirrix mifologiyasi obrazlari talqiniga o'xshaydi. "Avesto" bo'yicha Mirrix qurollangan baquvvat bir yigit sifatida tasvirlanadi. Bu suratlar o'sha davr qahramonlik raqslarini xarakterlab berish jihatidan katta qiziqish tug'diradi. Ularning belida kalta qilich osilgan va juda jo'shqin ritmda raqsga tushmoqdalar. Raqqoslarning qo'l, oyoq, tana harakatlari imo-ishoralari bir xil va bir biriga monand bo'lib, qandaydir bir ma'noni anglatadi. Ularning raqslari bir tomondan go'zallik baxsh etsa, ikkinchi tomondan jasurlik, qahramonlik kayfiyatlarini yoki jangga kirish oldidan zo'r tayyorgarlik ko'rayotganlarini eslatadi. Bu raqqoslarning qo'l, oyoq, tana harakatlaridagi keskin va aniq chiziq, qo'lni yuqori ko'tarib, tizzani biroz bukibroq o'ynashi, sakrab, jo'shqin ritmik harakat qilish xuddi hozirgi xorazm o'yinlariga o'xshab ketadi.¹⁹

Yuqorida keltirilgan dalillarning barchasi bizning yerlarimizdan topilgan. Ularda aks ettirilgan suratlar esa shu yerda yashagan insonlar tomonidan qachonlardir chizilgan. Chizilgan suratlardan shu narsani anglash mumkinki tasvirdagi qiyofalar erkak yoki ayol ekanligini to'liq anglash qiyin. Bu suratlarda ko'proq erkaklar aks ettirilganligini ko'rishimiz mumkin. Negaki, tasvirlarda ko'rsatilgan raqs holatlari aynan erkaklar bajaradigan harakatlarga mos keladi. Chunki bu raqqoslarning qo'l, oyoq, tana harakatlaridagi keskin va aniq chiziqlar hozirgi erkaklarga monanddir. Shuning uchun ham suratlarda erkak raqqoslar tasvirlangan degan xulosa chiqadi. Lekin shu narsa qiziqki, bu raqslar nimaga bag'ishlangan? O'z xarakteri bilan bu raqslar bizning fikrimizcha – harbiy – qahramonlik raqslaridir.

¹⁹ Раҳмонов М: Ўзбек театри тарихи. Қадим замонлардан XIX асрга қадар. Тошкент. Фан. 1975.й. 51-52 б.

Tarix otasi Geradot o‘zining “Tarix” kitobida Amudaryo bo‘yida yashovchi massagetlar kechasi gulxan yoqib, uning atrofida aylanib, tong otguncha raqsga tushib, qo‘shiq aytishlari xususida ma’lumot beradi. “Avesto” asarining “Yasht” bo‘limida ham bunday ma’lumotlar talaygina. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning “O‘tmish xalqlaridan qolgan yodgorliklar” asarida otash bilan bog‘liq raqs udumlari haqida ajoyib ma’lumotlar keltirilgan. U qadimda Xorazmliklarda “Ochom” bayrami bo‘lganligini, bu bayram yangi yil bayrami sifatida nishonlanganligini yozadi. Unda asosiy g‘oya yomonlik xudosi Axriman bilan yaxshilik xudosi Axuramazda o‘rtasida boruvchi kurash raqslarda ifoda etilgan ekan. Raqqoslar holdan toyguncha raqsga tushib, ruhiy ozuqa olganlar.²⁰

Bu raqslarni faqat erkak raqqoslar ijro etishganligi ham ma’lum. Bunday raqslar marosimiy raqs hisoblanib, raqs jarayonida ularning kiygan kiyimlari harakatlari barchasi o‘tkazilayotgan marosimga mos bo‘lishi shart bo‘lgan. Jumladan, “eramizdan oldingi II-I ming yilliklarda Farg‘onaning Saymalitosh tog‘i g‘orlarida chizilgan suratlar ichida o‘yinga tushayotgan dumlik kishilar guruhi ham bor. Ular ikki kishi - ikki kishi bo‘lib bir-birlariga yuzma –yuz turib, qo‘llarini ko‘tarib ehtiros bilan o‘ynamoqdalar”.²¹

Bu manbalardan shu narsa ma’lumki qandaydir bir marosim vaqtida ijro etilayotgan raqslar jarayoni tasvirlangan. Ammo shu narsa aniq emaski, bu ijrochilar erkakmi yoki ayol kishimi noaniq. Ammo mantiqan taxmin qiladigan bo‘lsak bular ikki kishidan bir biriga qarab o‘ynamoqda, bundan shu narsa ma’lumki, bugungi kunda ham bizning to‘y hashamlarda yoki bayramlarda yigitlar bilan qizlar xuddi shu tarzda bir birlariga qarab o‘ynashadi. Bu mantiqdan kelib chiqqan holda esa rasmdagilarni ayollar va erkaklar yonma yon birgalikda raqs ijro etmoqda deyishimiz mumkin. Haqiqatdan ham O‘zbekiston hududida topilgan va ibtidoiy jamiyat davriga mansub tasviriy san’at yodgorliklarida pantomim raqsga tushib turgan kishilar tasvirlarini juda ko‘p uchratamiz. Ular turli mazmun va

²⁰ Г.Матёкубова “Офатихон лазги” Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1993. 6-7 б.

²¹ Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи. Қадим замонлардан XIX асрга қадар. Тошкент. Фан. 1975.й. 169 б.

xarakterga egadir. Ba'zilar mehnat va ov jarayonini tasvirlasalar, boshqalari bo'lsa jangovor o'yinni eslatadi. Bular shuni ko'rsatadiki, dunyoning turli qit'alarida bo'lganidek, O'zbekiston hududida ham odamlarning boshqa qiyofaga kirishi va pantomim raqs san'ati ibtidoiy zamonlardan oq shakllana boshlagan.

Xitoy manbalarida keltirilishicha Buxoro va Samarqandda VI-VIII asrlarga oid "Sher yigitlar", "Guluu" (darboza), "Xutenu" (uchush, parvoz qilish) deb nomlangan erkaklar raqslari ham bo'lgan. Shu bilan bir qatorda bu raqslar Xitoyda ham ijro etilgan. Raqslarni ijro etgan raqqoslar bizning o'lkadan borishgan va ularga An-ch-nu, Shi-Choy-do kabi xitoycha nomlar bilan atashgan. Bu raqqoslar o'zlarining raqslari bilan Xitoyda juda mashhur bo'lishgan, hatto Xitoy imperatori saroylarida ham raqs tushishgan.²²

Ushbu tarixiy manbalarga binoan bizning o'lkalardan borgan raqqoslar Xitoyda juda qadrlangan. Ular o'zimizning urf odatlarimiz aks etgan raqslarni ijro etishgan.

Yuqorida keltirilgan manbalar o'zbek erkaklar raqsining ilk bosqichlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Bu manbalarga suyanganda holda o'zbek erkaklar raqs san'ati naqadar dalillarga boy tarixga ega ekanini ko'rishimiz mumkin.

Tarixdan o'zbek yigitlar raqsi hamisha sevilib tomosha qilinib kelingan, ammo ba'zi davrlarda bu raqslarni ijro etgan raqqoslarga xalq yomon nazar bilan qaragan. Bunga sabab nima? Bu savolga javob topish uchun uzoq tarixga yuzlanamiz.

Tarix sahifalariga binoan VIII asrda arablar bizning o'lkalarni bosib olgandan so'ng, ular "Islom"dan boshqa dinlar e'tiqodini taqiqladi. Islom dini qonunlariga to'g'ri kelmaydigan xalq o'rtasidagi turli xil urf-odatlarini, shular qatori istedodli ayollarning ashula aytib raqs tushishini ham mutlaqo man qildi.

²² Рахмонов М. Ўзбек театри тарихи. Қадим замонлардан XIX асрга қадар. Тошкент. Фан. 1975.й. 170 б.

Bo'ysunmagan sozanda, ashulachi va raqqosalarni yuzsizlikda ayblab ularni o'limga hukm qilishdi. Tirik qolganlari esa o'zga yurtlar Xitoy va Hindistonga qochib o'tishdi va shu yoqda o'z ijodlarini davom ettirishdi.

Yuqorida aytib o'tilgan manbalarga binoan, mamlakat ichida garchi tazyiq nihoyatda kuchli bo'lsada, san'at rivojlanish yo'lini topdi. Oqqan daryo oqmasdan qolmadi. Ayollar raqsini ijro etuvchi maxsus yosh raqqos yigitlar paydo bo'ldi. Ularni Buxoro va Qo'qon xonligida "Bachcha", "Juvon", "mulla qand" hamda Xorazmda "O'g'lon bola" deb atasha boshladi. O'sha davrda tajribali raqqosalarga sozandalik qilib ularning raqslarini ipidan ignasigacha biladigan sozandalar, yosh chiroyli va talantli bolalarni topib ularni xotin-qizlar raqsiga o'rgatisha boshladi. Bu bolalar 8-10 yoshdan boshlab 4-5 yil mobaynida ayol raqs usullarini o'rganishgan. Yigitlar ayollar raqsini ijro etishganda faqat ayollar raqsiga xos xususiyatlarningina emas, balki ayol harakatlarini, holatlarini, ichki ruhiy kechinmalarini ham raqsda ifodalagan. Ular ayollar libosini kiyib yuzlarini pardoz qilishib so'ng raqs tushishgan. Shu bois ularni tashqi ko'rinishidan ham, raqsidan ham ayollardan farqlab bo'lmagan. Ammo o'rta asrlarni kechgı davrlariga kelib esa bu hol biroz o'zgaradi, ya'ni haqiqiy erkak shijoatli raqqoslar shakllana boshlandi. Bunday raqqoslar ijrosi yuqorida aytib o'tganimizdek buyuk mutafakkir Mir Alesher Navoiyga ham ma'qul tushgan. Alisher Navoiy ayniqsa, yigitlarning raqslarini yoqtirgan. Quyidagi:

Yigitligimda edim muhtalo yigitlarga,

Qorib ham o'zni tilarmen fido yigitlarga,

— degan bayti shunga ishoradir. Shoir, ayniqsa, bir lo'li bozigar yigitning o'yinlarini behad yoqtirgan ekan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining she'riy vaznlar masalasiga bag'ishlangan "Muxtasar" asarida "Mir Alisher (hajaz bahrida) bir necha g'azal aytibtur, ul jumladan bir lo'li yigitning ta'rifida bu g'azal voqi' bo'libtur", deb uni to'liq holda keltiradi. Lo'li bozigar faqat raqqos emas, sirk san'atining ko'pgina turlarida mahorat ko'rsatgan. Shu boisdan biz quyiroqda yana

bu haqda to'xtalamiz.²³

Umuman, Alisher Navoiy raqs ustalarini yaxshi bilgan va san'atidan bahramand bo'lib turgan.

Zayniddin Vosifiyning "Badoe'ul vaqoe'" asarida hikoya qilinishicha, Amir Majdiddinning 1492-yilda Navoiy sharafiga uyushtirilgan bazmida boshqa atoqli san'atkorlar qatori Sarvi Labijo'y, Shamshodi Soyaparvar, Mohi Simmoniy, Mirak Za'faron laqabli raqqoslar ham qatnashgan. Yana shu manbadan 1510-yilda Zayniddin Vosifiyning uyida bir to'da san'atkor tomosha berganini bilib olamiz. "Bir kechasi, — deb yozadi Vosifiy, — bir guruh do'stlar bu faqirning uyiga to'planishdi. Mirzo Bayram qonunini sozladi, Xonzoda bulbul doira chaldi, Siyohcha xonandalik qildi. Mullo Fazliy, Mullo Ahliy, Mavlono Amoniy, Mavlono Muqlibiy badeha aytishdi. Toxir Chakka va Mohchuchuk raqsga tushdilar. Demak, badihago'ylarni hisobga olmaganda, to'da ikki sozanda va ikki raqschidan (5 kishi) iborat bo'lib, yigit bilan qiz birga raqsga tushgan".

Alisher Navoiy davrida Sayyid Badr degan mashhur raqqos ham yashaganligi ma'lum. U Husayn Boyqaro amirlaridan biri, hamsuhbati bo'lgan. Binobarin, Sayyid Badr raqs san'atida nainki mohir ijrochi, balki yuksak iqtidorli ijodkor ekan. Shubha yo'qki, Alisher Navoiy Sayyid Badrni va unga o'xshagan chinakam raqs ustalarini maroqlanib tomosha qilgan va qadrlagan. "Qari navo" kuyi va raqsining kelib chiqishini Navoiy nomi bilan bog'laydilar. Bu raqs, balki, ulug' shoir sharafiga Sayyid Badr tomonidan ixtiro qilingandir.

Alqissa, Alisher Navoiy asarlari qatlaridan raqs san'ati xususida ham ko'p qaydlar, ma'lumotlarni izlab topish mumkin. Bizning harakatimiz bir debochadir, xolos. Ammo hozirdanoq ba'zi bir xulosalar yasash mumkin.

Avvalo shuni aytish kerakki, Navoiy davrida Xuroson va Movarounnahrda raqs san'ati ham taraqqiy topgan va uch toifaga bo'lingan: biri ko'p hollarda

²³ Қодиров М: Темур ва темурийлар даврида томоша санъатлари. Тошкент. Фан. 1997. 127-129 б.

zodagonlar orasida maqom kuylari va usullariga ramziy harakatlar, imo-ishoralar, charxu aylanishlar bilan ijro etiluvchi mumtoz raqslar, ikkinchisi-xalq orasida aksar marosimlar bilan bog'liq hodisa hamda oddiy qo'shiq va yallalar bilan ijro etiladigan o'yinlar, uchinchisi-tasavvuf tariqatlari bilan bog'liq hamda mutasavviflar orasida uyushtiriladigan zikru samo'dir. "Munojot", "Qari navo" raqslari shu davrda zikru samo'dan ajralib, sof tomoshaga aylangan raqslardir, deb aytish mumkin.

Zardushtiylik davridan qolgan, quyosh va olovga tobinish, Anaxita va Siyovush timsollari bilan bog'liq bo'lgan, ko'p hollarda to'p-to'p bo'lib, niqoblar kiyib o'ynaladigan bir qator o'yinlar toifasi ham bo'lgan. "Urgushtak" shunday ommaviy raqslar sirasidan. Ayniqsa, Amudaryo yoqalarida, Xorazm vohasida istiqomat qiluvchi aholi orasida bunday o'yin va raqslar yaxshi rivojlangan. "Lazgi" raqslari ham aynan shu davrda taraqqiy topgan, butun bir turkum sifatida shakllangan, deb o'ylaymiz.

Shaharlar va qishloqlarda bayram va to'ylarda hamma o'ynagan. Hatto ko'chmanchi chorvadorlar ham qarsak chalib o'ynashgan. Eng yaxshi ijrochilar orasidan malakali raqqos va raqqosalar yetishib chiqqan. Ko'pgina shaharlarda raqs maktablari ish ko'rgan. Saroylarda ham kanizaklarga musiqa va raqsdan saboq berilgan. 8-9 yoshli o'g'il va qiz bolalar raqs ustalari qo'lida bir necha yil tahsil ko'rib, so'ng davraga kirganlar. Sozanda va navozandalarning dastalari bilan birga saroylarda, tarabxonalarda, saylgoh va to'yxonalarda goh yolg'iz, goh juft-juft, goh bir to'p bo'lib xizmat qilishgan. Katta gulxanlar atrofida ham o'ynaganlar. Mashshoqlar, hofizlar, baytchilar ularga jo'r bo'lib, ularni madh qilib turgan.²⁴ Xuroson va Movarounnahrda o'zbek, uyg'ur, turkman raqslarigina emas, tojik, fors, hindu, arab, chin raqslari ham shuhrat qozongan.

Turli xalqlar orasidan yetishib chiqqan raqs ustalarining hamkorligi, o'zaro ta'siri tufayli Alisher Navoiy davrida o'lkamizda raqs san'ati taraqqiy topgan.

²⁴ Қодиров М. Темур ва темурийлар даврида томоша санъатлари. Тошкент. 1997. 134-135 б.

Bu raqqoslar ijodi to'g'risida Z.M.Bobur asarlaridan "Boburnoma"ni varaqlar ekanmiz, raqs san'ati, raqqoslar xususida ham ba'zi qaydlar, ma'lumotlarga duch kelamiz. Xuroson va Movarounnahrda shuhrat qozongan Tohir Chakka, Maqsudali degan raqqoslar Bobur Mirzo xizmatida ham bo'lishgan, deb o'ylaymiz. Chunonchi, Bobur 1528-yilda Gang daryosi sohilida bir suhbat haqida xabar berarkan, "yigitlar bir pora sho'xluq qildilar, bir pora kushtigirlik qildilar", — deb yozadi. Jangchi yigitlar tomonidan bajarilgan "bir pora sho'xluq" — bu shubhasiz harakatdagi o'yinlardir. Muqallid va masxaralarning o'zlari ham o'yin va raqslarni kanda qilishmagan. Bo'rttirib, kulgili shakllarda ijro etiladigan hazil va hajv yo'nalishidagi o'yinlar ularning ijrosida yaxshi chiqqan. Bobur va uning qurshovi bunday o'yinlardan ham bahramand bo'lib turishgan. Ammo Bobur raqqoslardan bir kishinigina alohida ajratib ta'riflaydi. U ham bo'lsa Sayyid Badrdir. Bobur uni Husayn Boyqaro umarosi qatoriga qo'shib, raqqoslik mahoratiga yuksak baho beradi. "Yana Sayyid Badr edi, — deb yozadi Bobur, — Bisyor zo'r va asru shirin harakot kishi edi. Ajab sohib usul kishi edi. G'olib xo'b raqs qilur edi. G'ayri mukarrar raqs qilur edi. G'olibo ul raqs aning ixtiroidur. Hamisha Mirzo (Husayn Boyqaro) mulozamatida bo'lur edi. Doimo harfi sharob va hamsuhbati edi". Bobur Mirzo Sayyid Badr raqsini 1506-yil kech kuzida Hirotda mehmon bo'lib turganida bir necha bor ko'rib, bu xulosaga kelgan. Chunonchi, Sayyid Badr Muzaffar Mirzo ziyofatlaridan birida qatnashib, raqsga tushgan ekan. "Kayfiyat bulg'onda Mir Badr raqs qildi, xo'b raqs qildi. G'olibo u nav' raqs Mir Badrning ixtiroidur", — deb yozadi Bobur.

Muxtasar ta'rifu tavsifdan Sayyid Badrga oid ba'zi xususiyatlarni ilg'ab olish mumkin. Avvalo shuki, Sayyid Badr aslzoda, saidu mirlardan, Husayn Boyqaro amirlaridan biridir. Aftidan, Husayn Boyqaro vafotidan so'ng, u Muzaffar Mirzo xizmatiga o'tgan.

Raqs uning ko'ngil hushidir, davlat ishlaridan bo'sh vaqtlarida shug'ullangan. Yakka o'zi o'ynagan. Bobur Sayyid Badrni chuqur hurmat bilan tilga oladi. Uni sohib usul, ya'ni yuksak mahoratli raqqos sifatida baholaydi. Uning

raqslari o'sha davrda rasm bo'lgan raqslarga sira o'xshamas ekan. Boburning "g'ayri mukarrar raqs qilur edi" luqmasi shunga ishora. Chunki Sayyid Badr ijro etgan raqslar batamom uning o'z ixtirosi ekan. Bobur Mirzo ikkala o'rinda ham bu jihatni alohida ta'kidlaydi. Binobarin, Sayyid Badr raqs san'atining nainki mohir ijrochisi, balki yuksak iqtidorli ijodkor, raqsshunosdir.

Bobur Mirzo Hirotda Yusuf Ali ko'kaltosh raqsidan ham bahramand bo'lgan. "Sohib usul kishi edi, yaxshi raqs qildi", — deydi Bobur uning haqida.

Bu o'rinda ham Bobur Mirzo o'z ko'zi bilan ko'rgan, ko'p hollarda o'z amri bilan tashkil qilingan tomoshalar haqida xabar beradi. Ijrochilardan eng mashhurlarini, saroyga yaqinlarini tilga oladi. Bunday san'atkorlar aksar aslzodalar toifasidan bo'lishgan. Zamonasining eng mashhur tomoshasozlari Sayid G'iyosiddin bilan Sayyid Badr shu jumladandir. Ular nuqul shohlar, shaxzodalar, beklar, amirzodalarga xizmat qilishgan.²⁵ Shubxa yo'qki, Bobur zamonida xalq orasida ham yuzlab , raqqoslar faoliyat ko'rsatishgan. Bu raqqoslar esa yuqoridagi raqqoslardan mutlaqo farq qilishini ko'rishimiz mumkin.

Ammo eski udum hamon yo'qolmay, avloddan avlodga to XIX-XX asrgacha o'tib keldi, bu esa yosh raqqoslarning ayolcha kiyinib raqs tushushini hamon yo'qolib ketmaganidan xabar berardi. Bunga misol tariqasida 1877-1955 yillarda yashab ijod qilgan Urganchlik Qurbonboy sharlama ” ***Men 10 yoshimdan boshlab o'g'lon bola sifatida sozandalar bilan to'y va tomoshalarga chiqib yurardim. Raqsga chiqishimdan oldin ayollarning shoyi ko'ylak lozimini maxsisini kiyib, yasama sochimni orqamga tashlab qiz qiyofasida davraga chiqardim. Davradagilar meni qiz bola deb o'ylab, o'yin oxirida yana shu qiz o'ynasin deb qayta-qayta talab qilganlar. O'g'lon bola raqsini qiz qiyofasida chiqib o'ynash ustozlardan bizga meros bo'lib qolgan***”²⁶ deb o'z estaliklarida hikoya qilgan. “O'g'lon bola” raqqoslar yoshlikdan ayol xulq-atvorini o'rganib

²⁵ Қодиров М. Темур ва темурийлар даврида томоша санъатлари. Тошкент. 1997.й. 192-193 б.

²⁶ L.Avdeyeva. “O'zbek milliy raqsi tarixidan”, 2001.y. 71 b.

ularga doimiy taqlid qilish oqibatida ular hayotida ham ayollarga xos yurishlar, soʻzlashlar koʻp harakatlarida ayol qiliqlari boʻlishi tabiiy hol deb qaralgan. Bu esa turli gap-soʻzlar kamsitishlarga ham sabab boʻlgan. Bu sanʼatni ahamiyatini tushunmagan odamlar “Oʻgʻlon bolalar”ni masxara qilib qoralaganlar. Vaholanki, shu yoʻl bilan qadimda taraqqiy topgan va Islom dini kelgach taqiqlangan ayollar raqs sanʼatini erkaklar saqlab qolib bizgacha yetkazib kelgan. Qolaversa bu davrda sanʼatni asrash boyitishda ustoz shogirdlik anʼanasi benihoya katta rol oʻynagan. Sanʼatga ixlosi bor qobilyatli oʻsmirlar, mahoratli sanʼatkorlarga shogird tushishgan. Ustoz bilan shogirdni bunosabatini tartibga soluvchi yozilmagan qoidalar mavjud boʻlgan. Unga koʻra yaxshi raqqos boʻlishni xohlagan shogird ustozni buyurgan ishni bajarishi va bajargan ishiga haq talab qilmasligi, istedodini pulga ayirbosh qilmasligi, ustozlar oldida ruxsatsiz raqs tushishi, ularning oldidan kesib oʻtmasligi, xalqni hamma vaqt hurmat qilishi talab etilgan. Ustozdan fотиha olmaguncha shogird sanʼatkor deb hisoblanmagan. Shogirdlarni fотиha olmasdan turib davraga chiqishi katta ayb sanalgan. Qadimiy raqs sanʼat turlari bizgacha mana shunday ustoz-shogird anʼanasi orqali koʻz qorachigʻidek asralib avloddan-avlodga oʻtib kelgan. Bu borada erkak raqqoslarning hissasi juda katta. Yana shu narsani aytish joizki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida raqqoslarni alohida “Raqqos” deb atashmagan, aksincha ularni sozandalari doirachi Usta Olimning bachchasi, Yusufjon qiziqning oʻgʻlon bolasi oʻynadi deyishgan. Shu oʻrinda “Oʻyin” soʻziga ham toʻxtalib oʻtsak. Oʻyin bu asli xalq orasida bolalar va turli qiziqqon insonlar tomonidan koʻngil xushi uchun bajariladigan (Qumor, qarta, oshiq) mana bular oʻyin, ammo raqqos ijro etgan ijod mahsuli esa bu “Raqs”. Lekin shu davrda bunga eʼtibor berishmagan raqs tushgan raqqosni esa “oʻyinchi” deb atashavergan. Bu esa bugungi kunda ham xalq orasida saqlanib qolgan har qanday raqs ijrochisini “oʻyinchi” deb atash odat tusiga kirgan.

XIX asr oxirlarida turkiston oʻlkasida istiqomat qiladigan aholi oʻrtasida raqqos “Bachcha” va ”Juvonlarni” toʻy va bazimlarga chaqirish urf boʻlgan. Bu haqda atoqli oʻzbek dramaturgi Nusratulla Qudratilla xoji Muʼin Shukrulla

o'zining "To'y" nomli dramasida ***"Agar to'yga raqqos juvon chaqirilmasa mahalla yigitlari to'olon qilshini, shu sababli har bir to'yda raqqos juvon bo'lishi kerak bo'lganini"***²⁷ yozib o'tgan. Yana shu dramada aytishicha o'sha davrda Toshkent, Qo'qon, Farg'onada eng yaxshi raqqos yigitlar bo'lganligi haqida aytib o'tilgan. Bundan tashqari shu davrda Turkiston o'lkasiga kelib yashab ijod qilgan mashhur rus rassomi A.Nekalayev, yani, **Usta Mo'min** o'z chizgan rasmlarida o'sha davr to'y va bazmlarida ayol qiyofasida raqs ijro etgan raqqos bachcha yigitlarni ko'rib, ularni nozik qiyofada tasvirlagan. Bu bilan shu narsani anglash mumkinki, o'zbek yigitlar raqsi hamisha mard jasoratli xalqning kuchini, ularning erkaklarga xos mardona hislatlarini ko'rsata oladigan jihatlarini ochish o'rniga aksincha bu davrda nozik ayollar raqsini ko'proq ijro etgan. Bunday raqslar ommani ham o'ziga tez va oson jalb qilgan. Erkak kishining qanday qilib ayollar raqsini ijro etishi xalqni juda qiziqtirgan, bu hol xalq orasida shijoatli yigitlar raqsini yo'qolishiga, raqqos yigitlarga bo'lsa past nazar bila qarashga olib kelgan. Shu davrda shijoatli yigitlar raqsi kam ijro etilganini yana bir dalili Tamaraxonim bir saylda Usta Olim Komilovning mahorat bilan doira chalayotganini va uning yonida bir yigit shijoatli haqiqiy erkaklarga xos raqs tushganini bunday o'tli raqsni hali hech yerda ko'rmaganini, u ko'rgan yigit raqqoslar faqat nozik ayollarcha harakat qilganini aytib o'tgan.

Shu kabi ma'lumotlarni asli Buxorolik keyinchalik Tojikistonga ko'chib ketgan teatrshunos olim N.Nurjanov²⁸ o'zining "Tojik teatri" kitobida Buxoro raqqoslari tarixi haqida shunday ma'lumotlarni keltrib o'tadi;

Buxoroda raqsga yaxshi ovozga ega bo'lgan, baland bo'yli, qad qomatli oppoq yuzli, uzun qoshli hamda qora ko'zli chiroyli yaxshi tayyorlangan, san'atkorlarning farzandlarini tanlab olishgan. Madadxon hududida yashagan nochor hamda otasiz va onasiz qolgan oilalarning o'g'il bola farzandlarini jalb etishgan. Ma'lum bir muddatga vositachilar bo'lajak raqqosning xo'jayini bilan

²⁷ Шухрат Ризаев: Жадид драмаси. Шарқ нашриёти. Тошкент. 1997.й. 158 б.

²⁸ Нуржанов Н: Таджикский театр. (Под.ред. проф. Г.Гояна). М. Искусство. 1988. 262 с.

doirachi va choyxona egasi, katta mablag' olib bolalarni yangi xo'jayiniga tashlab ketishgan. Shartnoma muddati tugashi bilan bolalarni qaytarib olish mumkin bo'lgan. 3 – 4 yillik shartnoma to'lovi 2000 – 3000 ming tanga bo'lgan va shartnomani maxsus sudyalar tomonidan amalga oshirishgan. Ba'zi bir kishilar har yiliga alohida shartnoma tuzishgan²⁹. Hattoki ba'zida raqqoslarni Panjakent va boshqa shaharlardan sotib olib kelishgan.

Raqqos yigitlar o'z xo'jayini uyida yashagan ovqatlanishi va kiyinishi uchun xo'jayindan hech qanday pul olmagan. Raqqoslarning turmush tarziga yaxshi e'tibor bermasdan hech qanday ortiqcha sarf harajatlarsiz ular orqasidan yaxshigina daromad qilganlar. Har bir to'ydan 150 – 300- tanga miqdorida pul olishib ba'zi bir xo'jayinlar orttirgan daromadlarida uy qurishgan choyxonalar ochishgan. Ma'lumotlarga ko'ra **V.V. Kristovskiyning “yaxshi raqqos bo'lish o'ziga yaxshigina hayotiy koryera qilish”³⁰** degan so'zi bor. Ularning ichida eng omadsizi masxarabozlar bo'lgan.

Raqqosning ish muddati 6 – 7 yil bo'lib, bu ular hayotining eng qiziq davrlari, ya'ni, 12 – 15 yoshlari orasiga to'g'ri kelgan. 10 – 11 yoshdan yuqori bo'lmagan yigitlarni raqqoslik uchun tanlab olishgan. Ular o'n sakkiz o'n to'qqiz yoshga to'lganda yuzlariga toshmalar chiqqandan so'ng ularni raqqoslikdan bo'shatishgan. Ular artist darajasiga yetish uchun sochlarini o'stirib ikkita kokil qilib o'rishgan. Yigitlar 16 – 17 yoshga to'lganlarida sochlarini kesib raqqoslikdan bo'shatilgan yigitlarning ayrimlari doirachi bo'lgan ayrimlarini sarbozlikkga, ya'ni (harbiy xizmatga olib ketishgan). Gohida amirlar yosh boylarni ham sarbozlikga jo'natishardi. Bunaqa vaziyatda boylar 3 – 5 ming tanga evaziga qarab olgan yoki raqqoslikdan bo'shatilgan yigitlarni o'z orinlariga jo'natishardi. Raqqoslar bunaqa vaziyatda olgan pullariga uylangan o'zi uchun uy qurgan va bir vaqtning o'zida harbiy xizmatni o'taganlar.

²⁹ Нуржанов Н: Таджикский театр. (Под.ред. проф. Г.Гояна). М. Искусство. 1988. 263 с.

³⁰ Нуржанов Н: Таджикский театр. (Под.ред. проф. Г.Гояна). М. Искусство. 1988. 264 с.

Bazmlarda ishtrok etayotgan jamoalarning bittasi raqqos va uch to'rt nafar doirachilardan tashkil topgan. Raqqos yigitlarga doirachilar ta'lim berishgan. Mashqlarni tong sahardan och qoringa charx aylanish harakatini doirasiz bajarishgan. Mashg'ulotlar ikki uch hafta davom etgan. Yosh raqqos ikki uch marta charx qilib bir oz dam olib so'ng harakatni yana davom ettirgan. Doirachilar raqqosni boshi chayqalmasligi ko'ngli behuzur bo'lmasligi va uzoq aylanib turishi uchun uning boshiga **“Yakkamex”** bog'lashgan. Qachonki raqqos bu harakatlarni o'zlashtirgandan so'ng, ustozlari doira usullari bilan raqsni o'rgatishgan. Raqsni endi o'rganayotgan raqqoslar uchun charx aylanishi murakkab mashg'ulot hisoblanadi. Charx harakatini o'zlashtirgandan so'ng shoxi tol harakatini o'rganishni boshlagan. Bu mashg'ulot ham boshida doirasiz o'rganilgan. Bu harakatni o'zlashtirgandan so'ng raqqos yanada qiyin harakat charxchilik haraktini o'rgangan. Bu harakatni bir doirachi usul berib turib, ikkinchisi esa harakatlarni o'rgatgan. Agarda raqqos harakatlarni tezda o'zlashtira olmasa, uni qamish bilan savalagan. Mashg'ulot jarayonida chorchilik raqqos bir vaqtning o'zida qo'shiq aytishni ham o'rgangan. Qo'shiqlar tojik she'riyati Hiloliy g'azali (**Xoham ki ba zeri qadomat zor biliram** - istasam qadamimga zor qilaman. **Seni qadamingga zor bo'laman.**) yoki oyoqlaring ostida o'lmoqchiman degan ma'nolarni bildirgan. Ularga g'azalni o'rgatish uchun yuqori maktab o'quvchilari yani mullabachchalarni taklif etishgan. Ular 15 – 30 kun davomida g'azallarni raqqoslarga yodlatishgan. Bu g'azallar Xofiza, Hiloliy va Mashrab g'azallaridan iborat bo'lgan.³¹ O'qishni tamomlashi bilan raqqosning xo'jayini mullabachchalarga pul va ustboshlar sovg'a qilishgan.

Raqqoslarning kuylashini eshitishni Buxoroda juda yoqtirishgan, shuning uchun doirachilar raqqosni yaxshi kuylashiga e'tibor qaratishgan.

Eng asosiy raqs harakatlarini o'rgangandan so'ng bo'lajak raqqoslar keyingi mayda harakatlar ustida ishlardi. **“Qo'shporoni”** (qosh qimirlatish) raqqos bir

³¹ Нуржанов Н: Таджикский театр. (Под.ред. проф. Г.Гояна). М. Искусство. 1988. 265 с.

vaqtning o'zida ikkala qoshini yuqoriga ko'tarish va pastga tushirgandan so'ng **“xulq” “tabbasum”** (raqqosning tomoshabinga tabassumi) **“noz” “ishva”** chapak (chapak raqs jarayonida) va boshqa harakatlarni o'rgangan. Raqqos o'zining harakat va musiqalarini bilishi shart edi. Masalan doirachi doiraga zarb berganda raqqosning o'rnidan turishi yoki qayrilishi yoki charx aylanishi uchun belgi bo'lardi. Bu zarba **“shappot”** deyilgan. Bu belgi bilan doirachi raqqosni o'z yoniga chaqirgan. Raqqoslar davraga chiqishdan oldin o'ziga tanish tomoshabinlar orasida suhbatlashib o'tirgan. Doirachilar nafaqat musiqachi ashulachi baletmeyster va yosh raqqoslarga ham yordam beradi. Alohida belgilarga, ya'ni, boshlanish, pauza va yakun va raqs chizmasiga rioya qiladi.

Raqqos musiqaga oid sirli ishoraga muvofiq o'zining akomponiment raqsini boshlagan. Doiraning aniq ritmiga tushgan holda tizzaga tushib yuzi bilan yoki orqa bilan doirachiga egilib kafti bilan qarsak chalgan. Bundan tashqari doirachilar gohida raqqoslarni to'yga olib borardi. Raqqos to'ylardagi artistlar chiqishini ijro etilgan raqslarni esda saqlab qolardi. Umuman olganda raqqosning muvaffaqiyati doirachiga bog'liq bo'lgan. Maqol usul nog'orachini qo'lida bo'lgan (usul da dasti nog'orachi). Mahoratli doirachi raqqosni bir nigohi bilan uni tushungan. Bu tushunuvchanlik qobilyatsiz raqqosni bazmda qutqargan. Doirachining mahorati raqqosning xatolarini bartaraf etgan uning xatolari sezilmagan. Yosh raqqos doirachi kuylashni va chalishni to'xtatguncha raqs tushgan. Raqs ikki soatdan iborat bo'lgan. Ertalabgacha qisqa-qisqa tanaffuslar bo'lgan. Raqqos raqsdan so'ng juda ham beli og'rigan. Yonidagi sheriklari uni qo'lini ostidan ko'tarib doirachini oldiga o'tirg'izgan. Tungi doirachilar musiqaning ijro etish uslubiga qarab ikki guruhga bo'lingan. Birinchi guruh **mavrigi** kuyini milliy folklyor uslubiga asosan ijro etgan. Krestovskiy Mavrigini tasvirlab “juda katta yengil raqs” deb ta'rif beradi. Uni besh kishi ijro etgan. Raqqoslar ko'zoynakdek domino beshtaligi bo'lib joylashgan. Ularning har birining qo'lida ikktadan uzunligi arshinadek tayoq bo'lgan. Tayoqlarni ular uchidan ushlaganlar. Raqqoslar bir birlariga yuzlari bilan valsdagidek aylanib, aylana shaklida bir-birlari bilan yuzlashib, shu vaqtning

o'zida krest krestga qayd qilib, sakkiztalik o'trancha batchi aylana ichiga bitta nuqtaga aylangani kiradi. Bu yoqda qiyinchilikdan tashqari xuddi figuradek asosiy san'at shundaki tayoq bilan zarbani tayoqqa o'z oldida va dushman tarafga beradi. Bundan so'ng yana o'rtancha batchiy va ketma ket qadam tashlab so'nggi zarba to'rtta raqqosdan. Demak usulda o'ynash jarayonida hamma ishtrokchilar bo'lganlar, bu tanski batcham bilan barpo qilgan. Aytishlaricha haqiqatdan raqs o'ynalsa u turkmanlarda ijro etilgandek qilich yalang'ochlab o'ynalishi kerak. Lekin Buxoroliklar qilich o'rniga tayoq ishlatishgan, sabab bachchalar yaralanishi mumkin. Repertuarga bu raqs kirgan. Zang raqsini sozanda o'zlashtirgan. Bu raqs tasodifan emas, odatiy tarzda ijro etilgan ayollar libosida va deyarli kuylar bir muncha takrorlangan. O'spirin raqqos ayollar libosida va boshiga shoyi uzun ro'mol (ro'moli qolg'ay) tashlagan va bu ro'mol yelkagacha tushib turgan. Yana bir boshqa ro'mol ingichka va popukli qilib tikilgan, kalani atrofiga bog'langan. Raqqos qo'lining ikki joyida kojadan eni ikki santimetr bo'lgan 16 kologolgikdan yopishtirilgan. Oxirgilari tikilgan yuqoridan pastga ikki uchtadan popukli qator bilan. Kojali tasma raqqosning oyog'iga ham bog'langan u 20 yoki 25 popukdan iborat bo'lgan va har bir tasmada to'rtta qator bo'lgan.

V.V.Krestovskiyning ma'lumotlariga qaraganda Buxoroda raqqoslar umumiy qoidalar bilan boshqarilgan. Ular tomoshobinlar oldiga chiqqanda bir qator bo'lib turishgan. Ularning soni uchta, beshta yoki yettidan iborat bo'lgan. Moxir raqqos yoki ashulachi har doim o'rtada turgan. U egniga boshqalardan ajralib turadigan yengil chit matodan xalat, beliga qizil rangda katta belbog' boshida kundal yoki kimxob matodan tilla yoki kumush rangdagi bosh kiyim kiygan. Bosh kiyim ostidan qo'ngiroq sochlar yelkasiga tushib turgan. Old qismidagi sochlar cholka qilib qirqilgan yoki olib tashlangan.

Sadriddin Ayniyning yozishicha odatda mulla Ro'zi Axmad raqqos keladigan bazmlarga shoshilgan. U judayam mohir raqqos bo'lib, o'zi boshqa truppalarda yurishni hoxlamagan. O'zizning truppasi G'ijduvonda joylashgan.

Buxoroda XX asr boshida Mulloxon, Dleuraxon va eng mashhuri Hamroxon bo'lib ining qaddi qomati kelishgan, ovozi ham yaxshi bo'lgan. Yozuvchining qarindoshlari ham 1919- yilda Hamroxonni to'yga chaqirishib, uning ashulasi va raqs ijrosini kuztishgan. Ichkarigi hovlida ayollar o'yin kulgu qilishar edi, mehmonlar jamoasida erkak raqqosning paydo bo'lishi hammani jonlantiradi. Ular sekin raqqosga tabassum qilib ana keldi deb pichirlashgan. U o'zining yoqimli ovozi bilan tomoshabinlarga ma'qul bo'lgan. Yana bir taniqli raqqoslardan biri Rustam daxon bo'lgan. So'nggi raqqoslardan biri Usta Baraka Hamidovdir. U o'n yoshidan raqs tushishni o'rgana boshlagan ilk saboqlarini o'zining qarindosh akasidan o'rgangan. Hamidov uchun eng qiyini charx harakatini o'rganish bo'lgan. Har gal bu harakatni bajara olmaganida ustozidan tol daraxti novdasi bilan kaltak yegan. U Samarqandda muxlislar talabiga binoan 4 – 5 oylab raqs tushgan. Buxoroda esa uning san'atiga hurmat bilan qaraganlar. Raqqosning ijodida lirik romantik va sho'x raqslar bo'lgan. U nafaqat Buxoroda, o'z tug'ilgan yurti Samarqanda ham raqslarini ijro etgan.

Mening fikrimcha shu davr buni taqozo etgan, yuqorida aytilganidek yigit raqqoslar faqatgina o'zi va boshqalarning ko'ngil xushi uchun emas balki tarixdan qolgan qadimiy raqs turlarini bizgacha yetkazish uchun, bu noyob raqslarni yo'qolib ketmasligi uchun ham mana shu yo'lni tanlashgan. Ammo oddiy xalq buni noto'g'ri tushunib o'z bilganlaricha ularni masxara qilishgan, bu esa yigit raqqoslarning hayotiga ham ta'sir qilmasdan qolmagan. Mana shunday quruq bo'xtonlar og'izdan-og'izga o'tib bizning davrimiz odamlariga ham yetib kelib, ularning ongini ham zaxarlamogda. Bu hol bizning davrda ijod qilayotgan raqs ijodkorlarining ijodiy faoliyati va hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmogda. Bunaqangi bo'xtonlarni tarqatayotganlar esa jamiyat orasida yashayotgan, san'atga o'ta yuzaki qaraydigan, fikrlash doirasi kichkina bo'lgan kimsalardir. Biz bularga haqiqatni tushuntirishimiz qiyin, chunki buni tushunishi uchun inson oz-moz bilimli bo'lmog'i lozim.

1.2. O'ZBEK RAQS MAKTABLARIDA ERKAKLAR RAQSINING O'ZIGA XOS LOKAL XUSUSIYATLARI

Har bir millatning erkaklar raqsi o'sha xalqqa xos betakror qirralarni aks ettirishdek xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Muayyan bir milliy madaniyatni o'rganishda erkaklar raqs san'ati deb atalgan ulkan yo'nalishni ham o'ziga xosligi, uslubiy xarakteri, badiiy sifatlari, an'alarini tahliliy kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'p yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek erkaklar raqsida boshqa xalqlar san'atida uchramaydigan alohida badiiy xususiyatlar mavjudki, unda milliy qiyofa, obraz, millatning xarakterli jihatlari o'z aksini topadi. Jumladan Respublikamizning har bir hududi o'ziga xos raqs san'atiga ega. Bu bilan har bir viloyatlarimizning o'z lokal erkaklar raqs san'ati yaxshi rivojlanganligini misollar bilan keltira olamiz.

O'zbek milliy raqs maktablaridagi lokal xususiyatlar borasida so'z ketganida uning nihoyatda turfa va serjilo ekanligini qayd etish lozim. Farg'onacha yigitlar raqsidagi chapanilik, Surxondaryo raqsLARining o'ynoqiligi, Buxoro yigitlar raqsining salobatga ko'proq urg'u berishi, qoraqalpoq yigitlarining sho'xchanligi milliy raqs san'atimizning ulkan va rango-rang olamini aks ettiradi.

O'zbek milliy erkaklar raqsLari yaxshi ravnaq topgan Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarining har biri o'ziga xos erkaklar raqsiga egadir. Birgina Andijon viloyati tarixiga qaraydigan bo'lsak ko'plab raqs ustalarini ijod qilganligini, hamda o'zbek erkaklar raqsi rivojiga ulkan hissa qo'shganini ko'rishimiz mumkun. Ayniqsa Andijonda erkaklar raqsLARining rivojiga ulkan hissa qo'shgan raqs ustasi Abdug'offor qodirovdir. A.Qodirov (1938-1999) asli mohir doirachi bo'lib, o'z davrining mashhur sozandachisi Orif Garmon Toshmatovdan ta'lim olgan. A.Qodirov doira chalish bilan bir qatorda raqs sirlarini ham o'rganib, ayniqsa "Andijon polkasini" maromiga yetkazib ijro etadigan raqqos bo'lgan. Uning boshchiligida 1957-yil Andijonda "Andijon polkasi" xalq raqs ansambli tashkil etilgan. Bu ansamblga 1983-yilda "Xalq ansambli" unvoni berilgan. Ansamblning asosiy maqsadi o'z ijodi davomida o'zbek yigitlar raqsini qayta

tiklash, rivojlantirish, yoshlarga o'rgatish bo'ldi. Ansambl repertuari o'zbek xalq kuy, qo'shiq va raqslaridan iborat bo'lib 40 nafar ijrochini o'zida jamlagan. (1997). "Marhabo, talantlar", "Chashma", "Raqs" ko'rik va teletanlovlari g'olibi. Ansambl ijodiy faoliyati haqida "Men raqsga tushmoqchiman" nomli telefilm ishlangan. A.Meliboyev, S.Abdumajidov, A.Yunusov, M.Mo'minov, V.Qodirov, M.Qodirovlar ansamblning yetakchi raqqoslaridan bo'lishgan. Ansambl Ispaniya, Bolgariya, Ukraina, Ozarbayjon, Gruziya, Moldaviya mamlakatlarida gastrolga bo'lgan.

Abdug'affor Qodirov bu ansamblga uzoq yillar ijod qilib "Dilxiroj", "Qarg'alar", "Munojot", "Andijoncha", "Kichkina jon" kabi bir qancha raqslarni sahnalashtirdi. U sahnalashtirgan raqslar ichida "Dilhiroj" yakka raqs tarzida va "Qarg'alar" raqsi ommaviyligi bilan mashhur bo'lgan. Shu kabi betakror raqslari bilan o'zbek erkaklar raqsi rivojiga tengsiz hissa qo'shgan ijodkorlar boshlab bergan yo'l bugunga kelib ham saqlanib kelmoqda, lekin faqat Andijonda xolos. Ayniqsa, ustozlar ijrosidan oyoq harakatlari o'zgarishsiz asl holicha saqlangan, andijon raqslaridagi yengil, aylanma qo'l harakatlari bugungi kunga kelib biroz o'zgargan, shijoati oshgan-u, biroq mazmunan sust ekanligi yaqqol ko'rinib turadi. Bugungi kunga kelib, raqs jarayonida sakrashlar, oyoqlarni orqaga va tepaga tashlash kabi harakatlar mushaklar kuchini aks etishini yosh raqqoslarimiz ijrosida mohirona ko'rishimiz mumkin, faqatgina bu shijoat tashqi qiyofada harakatlarda gavdalanmoqda xolos, raqqos ichki dunyosi esa bo'sh. Lekin shunchalik bo'lsada, tarixdan uzoq yo'l bosib kelyotgan milliy raqs san'atini shu darajada ijro etishning o'zi ham tahsinga loyiqdir. Yuqorida keltirib o'tilgan Andijon erkaklar raqs san'atining o'ziga xosligi haqida qisqacha bayoni, boshqa hududlar erkaklar raqsidan mutlaqo farq qilishini ko'rsatib beradi.

Andijon bilan yonma-yan bo'lgan Farg'ona viloyatida bo'lsa erkaklar raqsi butkul o'zgachadir. Farg'ona ana'naviy raqs maktabining uslublari o'zbek erkak raqslarida Farg'ona professional raqs turkumini boshlab beruvchi murakkab ritmik-plastik syuita o'zbek xoreografik tarixida alohida o'rin tutadi. Farg'onacha raqslarda tana harakatlarining tabiiyligi tananing erkin turishi, tana yuqori

qismining yengil harakatlanishi, oyoq uchlarida yengil yugurishlari, Fargʻona vodiysining boy tabiatiga mos keladi. Fargʻona vodiysida erkaklar raqs harakatlarida “burgutlarga taqlid qilganlar — qoʻllar keng yozilib, yuqoriga koʻtarib, pastga tushiriladi, qoʻl uchlar harakati bilan havoga uchgandek boʻladi; bedanaga taqlid qilganda oyoqlarning uchida, mayda qadamlar bilan yuriladi, qoʻllar tana boʻylab yonga tushirilgan boʻladi va qoʻl uchlar silkinib turadi”³². Bu harakatlarni biz har bir raqsda koʻrishimiz mumkin.

Fargʻonacha raqsar qahramon harakatlariga boy boʻlib, dramatik ehtirolarni ifodalaydi. Fargʻona vodiysining erkaklar raqsarining ustalari Yusufjon qiziq va usta Olim Komilovlar ijro etgan raqslardan eng kattasi hamda Fargʻona vodiysi raqsarining asosi boʻlgan “Katta oʻyin” raqsidir. Bu raqs harakatlari asosida koʻplab erkaklar raqsari yaratilgan. Jumladan “Dilhiroj” raqsi ham “Katta oʻyin” raqs harakatlari asosida tuzilgan Fargʻona vodiysi, qolaversa, oʻzbek milliy erkaklar raqsining shox sanʼat asaridir.

Fargʻona erkaklar raqsari harakatlari Andijon va Namangan erkaklar raqsarida ham qisman kuzatiladi, buning sababi “Katta oʻyin” raqsining yon viloyatlar raqsariga ham taʼsir etganligidadir. Bu bilan shuni aytish oʻrinliki, Fargʻona erkaklar raqs harakatlari nafaqat Andijon va Namangan raqsarida balki Toshkent viloyati va shahri yigitlar raqsarida ham kuzatiladi. Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, Fargʻona raqs maktabi harakatlari yuqorida sanab oʻtilgan barcha hududlarda oʻz aksini topgan, biroq bularning har biriga sinchiklab qaralgandagina ularning oʻziga xos lokal xususiyatlarini koʻrishimiz mumkin.

Vodiy raqsarini lokal xususiyatlari haqida qisqacha yoritib oʻtdik endi voha erkaklar raqsari borasida toʻxtalsak. Fargʻona vodiysida “Katta oʻyin” raqs harakatlari ustuvor boʻlsa, voha Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida “Qarsak oʻyin” raqsi keng tarqalgandir.

Qarsak chalib ritm-usul hosil qilish va unga mos harakatlar topib oʻynash «Qarsak oʻyin»ning xarakterli belgisidir. Bundagi qarsakni doira usuli bilan qiyos qilsa boʻladi. Raqsda uning roli juda muhim. Qarsakchilar oʻyinni boshlagan,

³² L.Avdeyeva. “Oʻzbek milliy raqsi tarixidan”. 2001.y. 70 b.

o'yinchi raqqosga kayfiyat tug'dirgan, qarsak usulini o'zgartirish bilan o'yin harakatlarini yangilab, boshqarib borgan. Eng muhimi, ular usul berish bilangina qanoatlanmasdan, o'yinga bevosita aralashganlar, bir vaqtning o'zida ham usulchi, ham o'yinchi, ba'zan qo'shiqchi sifatida ham ko'ringanlar»

Tadqiqotchilar «Qarsak o'yin»larini «Besh qarsak» va «Mayda qarsak»ga ajratishadi. O'z navbatida «Mayda qarsak»ni «Yakka qarsak», «Qo'sh qarsak» va «Tez (ayrim joylarda «Uzma» deyiladi) qarsak» bo'limlaridan iborat deb ko'rsatishadi. Bu qarsak o'yinlar faqatgina ikki qo'l kaftlari orqali chiqqan tovushlar orqali ijro etilganligi bilan boshqa viloyat raqslaridan ajralib turadi.

Jizzax viloyatida yashab o'tgan havaskor raqqoslar Obilov Murodxo'ja, Xalil Zarifovlar «Qarsak o'yin»larini maromiga yetkazib ijro etgan raqqoslar hisoblangan.

«Mayda qarsak» bilan ijro etiladigan yana bir turli raqs borki, undagi barcha harakat, imo-ishoralarda soddalik, nafislik, mayinlik barq urib turadi. Bu jihatdan Jizzax viloyatida yashagan Hamro bulbul G'afforov (1887—1967) o'yini diqqatga loyiq ekanini keltrishimiz mumkin. Uning raqsi mayin, yoqimli va serifoda bo'lgan. Qarsak usuliga binoan o'yinchining, asosan, qo'l va bosh harakatlari o'zgarib turgan. Raqqos faqat oyoq uchida ikki qo'lini pastga tashlab, ko'tarib, ko'krakka kamalak qilib, bosh silkitib, yelka uchirib o'ynagan³³.

Samarqand viloyatining «Besh qarsak» (asli Laka-lum) raqsi esa juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. O'zbek xalqi azaldan musiqa va raqslarni ijro etishni yaxshi ko'rib kelgan. Shu boisdan ham bu raqs turi erkaklar davra bo'lib o'tirgan chog'ida turli xil hazillardan bog'lanib vujudga kelgan. «Besh qarsak» raqsi o'zbek milliy bayramlari va maishiy raqs turi sifatida ijro etiladi³⁴. Shunday qilib «Besh qarsak» yonma-yon turib davra hosil qilgan holda ma'lum temp va usulda

³³ Қодиров М: Ўзбек халқ томошалари. Т. 1981. 25 б.

³⁴ Каримова Р., Собирова Ф: Нурсафардия ҳаракатлар тизимида ўзбек миллий рақслари ва жанговар ўйинлари. Т. «Lider Gress» нашриёти. 2008. 310 б.

uriladigan qarsaklar, ayrim qiyqiriqlar vositasi bilan o'ynaladigan ommaviy raqsdir. Raqsni katta davralarda 20 va undan ziyod kishi ishtirok etadi. Ular bir tempda qarsak urib turish bilan birga u yon-bu yonga chayqalib o'tirib-turib va ayni vaqtda o'ng tomonga yon bilan aylanib o'ynaydilar. Shunisi qiziqki, imoishoralari bilan o'rtada o'ynab yurgan yakkaxon raqqosning mukammal raqsiga o'z munosabatlarini bildirib uni qiziqtirib turadi yangi - yangi harakatlarni o'ylab topishga yordam beradi. O'z navbatida solist ham davrada o'yinchilarni yangi-yangi ritmik usullar va jilvalar to'qishga undaydi. Odatda davra o'rtasida o'yinchining harakatlari shiddatli jo'shqin va jangovar bo'ladi. U ko'proq qo'l-bel, yelka-ko'krak harakatlarini ishlatadi, yuzida son-sanoqsiz ifodalar hosil qiladi, goh burilib, goh g'oz turib, goh tiz bukib goh cho'kkalab o'ynaydi. "Besh qarsak"da ham umumga, ham yakkaxonga taalluqli bo'lgan ikkita xususiyat ko'zga tashlanadi: biri qanday bo'lmasin - ko'krak kerib va yelkalarni alohida-alohida jiddiy o'rganishni talab etadi.

Samarqandda xalq o'yinlari to'y-tomoshalarda o'ynaladigan raqslardan biri tayoq o'yindir. Odatda "Tayoq o'yin" Ikki xil tayoq bilan o'ynaladi. Birinchi tur - uzun tayoq va ikkinchisi — kalta qo'shtayoq o'yini.

Uzun tayoq o'yinida raqqos uzunligi 120-130 sm. keladigan tayoq bilan o'yinga tushiladi. Ba'zi joylarda bu raqs cho'pon tayoq ham deyiladi. Shuning uchun tayoq raqs harakatlari nayza o'yin va cho'ponlarning o'yin harakatlariga uyg'unlashib ketgan. Xususan, ushbu o'yinni shu kungacha ijro etib kelayotgan Jizzax viloyatidagi folklor dastalar raqsidagi uzun tayoq o'yinida ayni shu raqs holatini kuzatish mumkin.

Bu raqslarning barchasi o'z ifoda vositasi, harakatlar uyg'unligi va syujeti bilan boshqa viloyatlar raqslaridan ajralib turadi.

Respublikamizninig janubi hisoblanmish Qashqadaryo va Surxondaryo erkaklar raqsi hanuzgacha deyarli o'rganilgani yo'q. Biroq bu o'lkalarning erkaklar raqslari o'zining tabiatiga monand yovvoyiligi bilan boshqa joylar raqslaridan mutlaqo farq qiladi.

Aytishlaricha, Surxondaryoning Boysun tog'lari etaklaridagi qishloqlarda "Tog'

qoplani” raqsi bo‘lgan ekan: unda raqqos go‘yo “sakrashga tayyorlanib”, yarim o‘tirgan holatda butun muskullarini “yig‘ishtirib”, keyin birdaniga oldinga sakraydi. Hozirgi kunda bu raqslar unutilib ketgan... Qachonlardir bu yerlarda “Ayiqliq ufori” degan raqslar ham bo‘lgan ekan³⁵.

Surxondaryo folklor raqslaridan hisoblangan “Boysun” raqsi alohida lokal xususiyatga ega, chunki bu raqs ushbu vohaning milliy raqslaridandir. “Boysun” raqsini erkaklar, ijro etadilar. Bu raqs orqali raqqoslar o‘zlarining millatiga mansub bo‘lgan urf-odatlarini, udumlari, o‘yinlarini tarannum etib, raqs orqali o‘z hududiga xos bo‘lgan milliy xususiyatini ochib beradilar.

Bu vohaga tegishli erkaklar raqslaridan yana biri “Chillik” raqsi bo‘lib, bunda erkak raqqoslarning har bir qo‘lida bittadan kaltak bilan o‘ynaydi. Raqqos chap qo‘lidagi kaltakni osmonga otib, qaytib tushayotganida o‘ng qo‘lidagi kaltak bilan uzoqqa bor kuchi bilan uradi. Kimning kaltagi uzoqqa o‘zib ketsa, shu kaltak egasi g‘olib hisoblanadi. Shu asosda “Chillik” raqsi ijro etiladi.

Qashqadaryo viloyatining erkaklar raqslari tabiati bilan juda hamohangdir. Qarshi cho‘llarida ijro etilgan uforida tez-tez qadam tashlab, qo‘llarini bosh uzra ko‘tarib, tirsaklari aylana hosil qilgan holda qo‘l uchlari birlashtirilganda kiyik obrazi hosil bo‘lgan. Bu “Uchqur kiyik” raqs harakatlarini eslatadi. Cho‘l hududlarida qo‘llarini oldinda ko‘tarib o‘ynaladigan “Qumpishak” o‘yini ham shunday keng tarqalgan³⁶. Raqqos tiz cho‘kib, tizzalarini birlashtirib, qo‘llarining tirsakdan yuqori qismini beliga jipslashtirib, bilaklarini oldinga cho‘zgan holda qo‘l uchlari pastga qaratib, butun tanasi bilan titrab, alanglab, sakrab-sakrab harakat qiladi. “Mag‘rur burgut” raqsida raqqos oyoqlari uchiga sal ko‘tarilib, tizzalarini sal bukib, qo‘llarini keng yozgancha silkitib qadam bosadi. Yirtqich qirg‘iylar ham xuddi burgut kabi tasvirlanadi, faqat bunda raqqos butun tana muskullarini qattiq siqib, tez yuradi va yuguradi, qoshlari chimirilib, ko‘zlari yovuz boqadi.

Qashqadaryo viloyatining qadimgi raqslaridan yana biri “Pichoq” deb

³⁵ L.Avdeyeva. “O‘zbek milliy raqsi tarixidan”. 2001 y. 74 b.

³⁶ L.Avdeyeva. “O‘zbek milliy raqsi tarixidan”. 2001 y. 73 b.

nomlanadi. Bunda raqqos qo'llarida pichoq o'ynatib, tryuklar asosida harakatlarni boyitib, ijro mahoratini ko'rsatgan. Bu raqsda asosan erkaklarga xos tizza bilan aylanish, darbozlar harakati, chaqqonlik va epchillik talab etilgan. Mazkur raqs asosida "Kordboz" raqsi elementlari yotadi. Bu san'at o'yinchilardan jangovar raqs harakatlarini mohirlik bilan ijro etishdan tashqari tez va chaqqonlik bilan pichoq o'ynatish kabi murakkab nomerlarni yaxshi bilishni taqozo qilgan. "Pichoq o'yin"ining bir kishi, ikki kishi ayrim hollarda to'rt kishi tomonidan bajarilgani ma'lum. Ijrochilar nog'ora surnay jo'rligida ikkitadan o'ntagacha bo'lgan pichoq bilan turli jangovar harakatlar ko'rsatib tomoshabinlarni hayratda qoldirganlar. Agar kordbozning bir o'zi chiqadigan bo'lsa u iloji boricha ko'proq pichoq o'ynatishga harakat qilar o'z ustaligini pichoqlarni qo'llarining tez va chaqqon harakatlari bilan qo'ltig'idan, bo'ynidan, butidan o'tkazib olish orqaligina emas akrobatik tryuklar yordamida ham namoyish qilar ed. Misol tariqasida Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi Chimqo'rg'on qishlog'ida yashab o'tgan Zaqara Mirzayev degan raqqosni ko'rsatib o'tish mumkin. U ikki qo'lga ikkitadan to'rtta pichoqni tig'larini bir-biriga qarama-qarshi holda ushlab olib, epchil harakatlar bilan beli orqali uni butidan o'tkazib sakrab charx urib aylanib yana oyoqqa tik turib olar ekan, Shaxrisabzlik Xo'jaboyvachcha va Xo'japuchuklar³⁷ esa tomoshabinlar qarsagi ritmiga mos ravishda bir vaqtning o'zida o'ndan ortiq pichoq bilan o'ynagan. U pichoqlarni panja oralariga bergan va ikkitasini tishlagan va juda chaqqonlik bilan kombinatsiyalarni o'zgartirib turgan.

Bu vohaning yana bir raqsi "Qoshiq" raqsi bo'lib, uni raqqos ikki qo'lida bir juftdan qoshiq bilan ijro etadi. Qoshiqlar bir-biriga urushtirilib ovoz chiqarib turishi raqs tempiga qo'shilib ketadi. Bu raqs elementlari baletmeyster Q.Mo'minov tomonidan sahnalashtirilgan "Zarafshon syuitasi" raqsida ham qo'llanilgan. Bunda qizlar barmoqlariga angishvona taqib, qo'lida likobchaga urib ovoz chiqarib raqs ijro etadilar. Bu raqs ayollarga xos bosiqlik va nozik harakatlar bilan boyitilgan. Mazkur syuita yana bir "Choynak" raqsiga ulanib ketadi. Bunda erkaklar choynakning qopqog'ini barmoqlariga kiydirgan holda choynakka urib,

³⁷ Қодиров М. Ўзбек халқ томошалари. Т. Ўқитувчи. 1981. 83-84 б.

musiqi usuliga o'zining mayin zarbini qo'shib raqs ijro etadilar. Hozirda ham bu raqs "O'zbekiston" ashula va raqs ansamblida ijro etib kelinmoqda.

Buxoro erkaklar raqsi haqida so'z ketganda yuqorida tilga olingan voqa raqslaridan butkul farq qilishi borasida aytmasdan iloj yo'q. O'tmishda Buxoro amirligi hudididagi yirik shaharlarda rasm bo'lgan hamda professional raqqoslar tomonidan ijro etilgan o'ziga xos, xilma-xil o'yinlarni nazarda tutamiz. «Shashmaqom»ning taronalari, uforlari bilan ijro etiladigan raqs, «Mavrigi» deb atalgan raqs turkumi nog'ora, surnay va karnaylarning usullarida ijro etiladigan qator raqs, shuningdek, turli xarakterdagi bazmlarda, to'ylarda ko'rsatiladigan muqallid-pantomimalar, kulgili o'yinlar, qoshiq, tayoq, qayroq, pichoq urushtirib, belga yasama ot, yuzga niqob tortib namoyish qilinadigan turli-tuman yakka hamda umumiy raqs ana shular jumlasiga kiradi. Buxoro yigitlar raqsi o'zining noyoblighi-yu, nodirlighini eng mashhur raqqoslar Rajabali, Dakanxon, Juraxon, Ergashcha, Fayzicha, Nurullo, Karimcha bozinger, Rodicha, Hamidcha, Islom Shodi, Hamdamxon, Mirzaxon, Ahmadcha, Abdurahmon, Jumacha Chortoriy, Iskandar, Maston, Chavkarxon mehnatlari beqiyosdir.

Buxoro raqs maktabi-shijoat va ehtirosni, shaxdam qadamlikni, egiluvchanlikni va qaddi-qomatining tetikligi bilan ajraladi. Qo'l-oyoq holatlari tez va aniqlikni, bosh holati biroz ko'tarilib yelka qismini orqaga tashlash orqali xuddi quyoshning zarrin nuridan quvvat olayotgan mag'rurlik va ishonuvchanlik belgisidir.

Buxoro raqs maktabining asosi-egiluvchanligi, charxi, qo'lning holatlari raqs harakatlari bilan uyg'unlikda bajarilishi bilan ahamiyatlidir.

Professional erkaklarning kostyum liboslari: keng shalvar, oq yaktak, og'ir parcha xalat va qirrali do'ppidan iborat bo'lgan. Etiklari yorqin, baland poshnada ijro etilgan, ayrim vaqtlarda erkaklar oyoq yalang ham raqsqa tushish holatlari sahnada kuzatilgan.

Qadimdan Buxoro tarfalarda, ayniqsa, G'ijduvonda deyarli har bir choyxonada bittadan raqqos mavjud bo'lgan. Raqqosi yo'q choyxonalarni tomoshabinlar yomon ko'rishgan. 1905 – 1907 – yillarda raqqoslarning choyxona

tasarrufida bo'lgani Amirga yoqmaydi. Shaharlarni boshqarish ham mirshablar qo'liga o'tdi. G'ijduvonda raqqoslarning soni taxminan 20 – nafar bo'lgan va ular ertalabdan kechgacha mirshabning binosida (mirshabxonada) bo'lgan. Mijozlar shu yerga kelganlar raqqosni xo'jayini bilan gaplashishgan. Xo'jayinga 15 – 20 - tanga berishgan yaxshi raqqos uchun 60 – tanga faqat shundagina xo'jayin raqqosni to'ylarda yoki bazmlarda raqs ijro etishiga ruhsat bergan.

Xorazm erkaklar raqs maktabi ham o'zigagina xos xususiyatlarga ega. Farg'ona erkaklar raqsi ijrosida “Katta o'yin” mashhur bo'lgan bo'lsa, Xorazm erkaklar raqs maktabi raqslari “Lazgi” kuyi bilan ijro etish odat bo'lgan. Bu maktab raqslari ijrosining yana bir xususiyati shundan iborat bo'ldiki, ular qayroq toshlari ohangi ostida ham ijro qilindi. Xorazm raqs maktabi raqslari barcha tana a'zolarining barobar harakati, bukilgan oyoqda harakat qilish singari xususiyatlar xosdir. Xorazmda erkaklar raqsi ba'zan ayollar bilan juftlikda ijro etilgan. Bu maktab erkaklar raqsi ba'zan qo'chqor, xo'roz urushtirish jarayonlari aks ettirilgan. Raqqoslar kiyimi ham Xorazm xalqining o'ziga xosligini aks ettiradi. Kiyimlar ichida ko'proq ko'zga tushadigani xorazmcha katta to'garak telpagidir. Xorazm viloyatining “Chugurma” raqsida vohaning o'ziga xos bosh kiyimi asosiy o'rinda turgan. Bu raqsda chugurmani tayyorlanishi, tikish jarayoni chuqur ma'noga ega bo'lgan harakatlar va holatlarda ko'rsatib ochib beriladi. Ma'lumki, Xorazmning chugurmasi jazirama issiqda ham qahraton sovuqda ham kiyiladi.

Xorazm viloyatining yana bir raqsi “Qum pishak” bo'lib, unda mushuklarga xos holat, xarakter ko'rsatilgan. Mushuklarning bir-birining ustiga chiqishi, quloq va bo'yinlaridan tishlab tortishi, bir-birlari bilan qumda dumalab o'ynash jarayoni raqs orqali ochib beriladi. Hozirgi kunda bu raqs ayrim jamoalar repertuaridan joy olgan. Xorazm xalqi asosan hayvonlar tabiatini aks ettiradigan, ularga taqlid tariqasida raqslar ijro etgan va hozirda ham bu an'ana saqlab qolingan.

Xorazm erkaklar raqsi maktabi bilan bir qatorda ularga qo'shni bo'lgan qoraqalpoq xalqida ham erkaklar raqsi rivojlangan. Qoraqalpoq qadimda ko'chmanchi xalq bo'lgani uchun raqslari ham ana shu yashash tarzini aks

ettirgan. Ayniqsa chorva bilan bog‘liq raqslar keng tarqalgan. O‘z raqslari bilan qoraqalpoq erkaklari chaqqonligi, abjirligi, topqirligi, mehnatkashligi kabi hislatlarini namoyish qilgan. Qoraqalpoq xalqining ko‘pchiligi dengiz bo‘yida yashaganligi, tirikchiligi dengiz bilan bog‘liq bo‘lganligi tufayli “Baliqchilar” nomli erkaklar raqsi mustahkam ildizga ega bo‘lgan va nihoyatda keng tarqalgan. Qoraqalpoq xalqi shug‘ullangan maishiy mehnatlar bilan bog‘liq ravishda erkaklar raqsi vujudga keldi. “Cho‘ponlar”, “Baliqchilar”, “Aykulash” kabi raqslar shular jumlasidandir. Bu raqslari ijro etayotgan o‘ziga xos libosda raqsga tushadilar. Liboslar ham qoraqalpoq xalq liboslaridan kelib chiqqan.

“Baliqchilar” raqsi qoraqalpoqlarning an‘anaviy raqsi bo‘lib, u 1957-yilda sahnalashtirilgan. Xo‘jayli tumanida kolxozchi Otajonov raqs asoschisiga “Shag‘ala” nomli qadimgi xalq pantomimasini ko‘rsatadi. Beozor xalq pantomimasi o‘zining obrazga boyligi, harakatlarining o‘ziga xos ko‘rinishlari bilan ijodkorni rom etadi. Raqsning asosiy elementi chag‘alaqning suvdan baliqni tutishi raqsda gavdalanadi. Lekin raqs kompozitsiyasini to‘liq namoyish etish uchun bir harakatning o‘zi kamlik qiladi. Shunda ijodkor baliqchilarga murojaat qilib ularning mehnat jarayonini, xarakterini o‘rganib chiqadi. So‘ng ularning mehnati oson emasligini, tabiatning turli xil to‘sqinliklari mavjudligini ijodkor tushunadi. Menimcha, bunday holat ularda hazilkashlik hislatini uyg‘otadi. Raqsda Orolning xursand mehnatkash “Baliqchilar”ning harakatlari gavdalanadi. Raqs uch qismdan iborat bo‘lib, ular “Baliqchilar qo‘shig‘i”, “Chimbay- namasy”, “Shag‘ala- namasy” kabilardir. Raqqoslarning liboslariga kelsak, bunda oq rangli ko‘ylak chetlariga qizil tasma tikilgan bo‘ladi. Qora satin matosidan tikilgan kamzul va to‘q rangli shim kiyiladi. Boshga sabzi rangli qo‘shoq kiyiladi. Etiklar esa qora rangda bo‘ladi. Raqsni o‘n beshtaga yaqin raqqos yigitlar ijro etadi.

Qoraqalpoq erkaklar raqsi goh jo‘shqin, goh ohista ijro etiladi. Bu raqslar xususiyatidan kelib chiqadi. Qoraqalpoq erkaklar raqsi juftlikda, guruh bo‘lib ham ijro etilishi mumkin.

BIRINCHI BOB BO'YICHA XULOSALARIMIZ

O'zbek erkaklar raqsi tarixiy ildizlari nihoyatda chuqur bo'lib, bu borada hali yana ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borish mumkin ekanligini ko'rsatadi. Buning yaqqol dalili sifatida birinchi bobda yoritilgan ma'lumotlarning har biriga alohida to'xtalib o'tish joiz ekanini ko'rishimiz mumkun. Shu bilan bir qatorda birinchi bobning birinchi bo'limida o'zbek erkaklar raqsining rivojlanishi xususida so'z borsada, biroq biz o'z-o'zidan nafaqat o'zbek balki butun O'ra Osiyo xududida erkaklar raqsini rivojlanish tarixini o'rganishimizga to'g'ri keladi, shundagina biz ko'zlagan maqsadimizga erisha olamiz.

Bizning diyorimizda erkaklar raqsi eramizning birinchi ming yilliklaridanoq shakllanib, bir necha davrlarni o'z ichiga olgan holda, o'zining turi, xususiyati, yo'nalishlarini boyitib borgan. Shu boisdan ham erkaklar raqsi zaminimizda keng ildiz otganligini ko'rishimiz mumkin.

Kuzatilganlardan mamlakatimiz hududida keng rivoj topgan erkaklar raqsining ko'pgina turlari mehnat jarayonida shakllanganini ko'rishimiz mumkin. Bu xolatni qadimda bizning o'lkalarda yashab o'tgan insonlar tomonidan yasalgan ko'plab uy ro'zg'or idishlarining tashqi qismiga ishlangan tasverlardan ko'rishimiz mumkun. Bu tasverlarda qadim zamonlarda ona zamenimizda yashagan xalqlarning yashash sharoiti, urf - odatlari, dini, an'analari aks etgan. Sopol idishlar yuza qismida tasverlangan bu noyob san'at asarlari faqatgina go'zal ko'rinishi uchungina emas balki ma'lum bir manoni anglatish uchun chizilgan. Shu chizgilarning ko'pchiligida raqsga aloqador suratlar uchraydi. Bu suratlar biz uchun tarixni so'ylaydigan manba sifatida doimo as qotib kelmoqda.

Yurtimizning har bir go'shasida erkaklar raqsLARining xilma - xilligi o'ziga xos lokal xususiyatga egaligi o'zbek milliy erkaklar raqsLARining naqadar boy ekanligidan darak beradi. Biz yurtimizda ravnaq topgan har bir raqs maktabiga to'xtaladigan bo'lsak, avvalo ularning erkaklar raqsini chuqurroq o'rganishga

xarakat qildik. Bu izlanishlar shuni ko'rsatdiki, yurtimizning har bir go'shasida o'ziga xos erkaklar raqsi ravnaq topganini guvoxi bo'ldik.

O'zbek erkaklar raqslarining asosi bo'lgan "Katta o'yin", "Qo'sh qars", "Qarsak o'yin", "Lazgi", "Mavregi" bularning barchasi o'z kelib chiqish tarixi va rivojlanish bosqichlariga egadir. Birinchi bobda yoritilib o'tilgan o'zbek erkaklar raqsi tarixida, nafaqat raqqoslar, balki shu davrda ijod qilgan buyuk mutafakkir olimlar, shoirlarning erkaklar raqsiga qanchalik qiziqishganini hamda shu davrda ijod qilgan raqs ustalarini qo'llab quvvatlaganliklarini qisqacha bo'lsada bayon qilib o'tdik. Shu bilan bir qatorda Respublikamizning deyarli har bir viloyatlarining erkaklar raqslari haqida oz bo'lsada ma'lumotlar berishga harakat qildik. Bu berilgan manbalarda har bir hudud o'zining iqlimi, yashash sharoiti, urf odati hamda mehnat jarayonlaridan kelib chiqqan holda raqslari rivojlanganini ko'rishimiz mumkin.

IKKINCHI BOB

O'ZBEK ERKAKLAR RAQSINING BUGUNGI KUNI VA ISTIQBOLI

Bugungi kunda yurtimizda o'zbek milliy erkaklar raqsi kun sayin ravnaq topib bormoqda. Bu sohada ijod qilayotgan raqs ustalarimiz ham o'zlarining bor mahoratlarini ishga solib yangidan yangi raqslarni sahnalashtirishmoqda. Jumladan, shu yili Respublika miqyosida tarixda birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, «O'zbekkonsert» davlat muassasasi hamda Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi bilan birgalikda o'tkazilgan **“Buxoro jilolari”**³⁸ raqs ko'rik tanlovida ijodkorlarimiz tomonidan bir nechta yangi yigitlar raqslarini sahnalashtirilganligini guvohi bo'ldik.

Bu tanlovda eng ko'zga ko'ringan raqsar TDMRXOM talabalari, “O'zbekiston”, “Navbahor”, “Navro'z” raqs ansambllari yigitlari tomonidan ijro etilgan raqsar bo'ldi. Jumladan, “Navbahor” raqs ansamblining baletmeysterlaridan biri taniqli raqqos, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist N.Shermatov tomonidan sahnalashtirilgan **“Buxoro o'g'lonlari”** raqsi so'zimiz isbotidir. Bu raqs tanlovda ijro etilgan raqsar ichida eng namunalisi desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki ko'rsatilgan raqsarning deyarli barchasi bundan ko'p yillar oldin buyuk raqs ustalari tomonidan sahnalashtirilgan raqsardir. Hech bir ijodkor yurak yutib yangi raqs sahnalashtirishga qo'l urmagan faqat N.Shermatov va S.Karimovdan tashqari. Bu ikki ijodkor haqiqatdan qoyil qoladigan darajada mehnat qilishgan, yana ular yigitlarga raqsar sahnalashtirgani hayratimizni oshirdi. Chunki, ko'p yillar davomida sahnalashtirilgan buxorocho raqsar asosan qizlar uchun qo'yilgan, yigitlar ijrosida bo'lsa juda kam uchrardi, bor bo'lsa ham qizlar bilan birgalikda jamoaviy ko'rinishda aks etardi. Bu safar N.Shermatov tomonidan sahnalashtirilgan “Buxoro o'g'lonlari” raqsi haqiqiy Buxoro shijoatini aks ettirgan, milliy harakatlar jamlanmasi bo'lgan raqs qiyofasini

³⁸ N.G'ofurov.Kultura.uz.30.01.2018.

oldi. Bu raqs tanlovda 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Raqsni ikkita ko'zga ko'ringan ajoyib raqqoslar, TDMRXOM talabalari "Nihol" davlat mukofoti sovrindorlari Sherzod Kenjaboyev va Tigran Abdullayevlar ijro etishdi. **"Buxoro o'g'lonlari"** raqsi o'tmish an'alarini o'zida mujassam etgan, mard o'zbek o'g'lonlari qiyofasini gavdalantirgan noyob o'zbek erkaklar raqsining bir namunasidir. Bu raqs oddiy harakatlar ketma-ketligidan jamlangan raqs emas, bu raqsda bir olam ma'no bor. "Buxoro o'g'lonlari"da baletmeyster N.Shermatovning dardini his qilamiz, chunki, bu raqsda "Dashnobod" raqsining mardonavorligi, "Dilhiroj"ning qalb to'ridan otilib chiqadigan dardi, "Lagan" raqsining betakror harakatlaridan namunalar, xullas N.Shermatov hayoti davomida ijro etgan ko'pgina raqslardagi badiiyligni bir shu raqsning o'zida mujassamlashtirgan.

"Buxoro o'g'lonlari" raqsi shu bugun erkaklar raqs olamida katta yangilik bo'ldi. Bu raqs bilan bir oz vaqt ijod qilishdan to'xtab qolgan N.Shermatov o'zini yana bir bor tengsiz san'at ustasi ekanini ko'rsatib qo'ydi. Tomoshabinlar ham bu raqsni katta olqishlar bilan kutib oldi, demak raqs xalq ko'ngliga yaqin dardlarni ochib bergan. Biroq raqsda ko'zga yaqqol ko'rinadigan kamchiliklar ham bor. Bulardan eng asosiysi bir xil raqs harakatlarining juda ko'p takrorlanishi, ba'zi raqsar "Dashnobod"dan olingan tog' kiyigi misol oldinga sakrash va tizza bilan yerda sirpanish, "Lagan" raqsidan raqqoslar qo'lidagi doiralarni xuddi lagan raqsidaidek tepaga otib so'ng ushlab olishi kabi sirkka xos bo'lgan harakatlar ajoyib, lekin bir-biriga yaxshi qovushmagan. Mana shu tomonlariga ozroq e'tibor qaratilsa raqs bundanda qiziqarli hamda maroqli chiqadi degan umiddaman.

Asosiysi izlanish bor, bu haqda O'zbekiston san'at arbobi Shokir Axmedov shunday fikrlar bildirdi -"Narziddin Shermatov azaldan o'zbek erkaklar raqsini rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayotgan ijodkordir, bugungi ko'rsatilgan "Buxoro o'g'lonlari" raqsida ham u asl erkaklarga xos bo'lgan shijoatni ko'rsata oldi. Bunday raqsar yosh ijodkorlarimizga o'rnak bo'lishi kerak, ular ko'rishsin

haqiqiy san'at asari qanday bo'lishi kerakligini, bu bilan N.Shermatov erkaklar raqsining mohir ustasi desam adashmagan bo'laman"³⁹.

Demak, mehnat qilinganki, yangilik yaratilgan. Shunday yangiliklardan yana biri "O'zbekiston" ashula va raqs ansamblining yosh ijodkorlaridan **Sunnat Karimov** tomonidan sahnalashtirilgan "**Buxoro**cha" va "**Doira sadosi**" raqslari bo'ldi. Bu ikkala raqslarni ham yigitlar ijro etishdi. Birida ya'ni "Buxorocha" raqsda qadim Buxoro shaxzodalari qiyofasi TDMRXOM talabasi Ulug'bek tomonidan gavdalantirildi. "Doira sadosi" raqsini esa "O'zbekiston" ashula va raqs ansamblining yosh raqqosi Sardor Axmedov haqiqatdan ham "Mavrigi" ohangiga mos ravishda raqs harakatlari bilan boyitilgan sahna asarini ijro etib bizni qoyil qoldirdi. Buxorocha tebranishlar, sekin ammo falsafiy harakatlar, boshqa ijrochilarda kuzatilmagan Buxorocha raqs sehrini aks ettirdi. Faqatgina libos masalasi bir oz achinarli xoldir, chunki raqqos oyoq kiyimi va shalvari Buxoro liboslariga xos emas, mana shu kichkina kamchilik to'ldirilsa, hamda bir oz raqs harakatlari tozalansa yaxshi yakkaxon, yangi buxoro maktabiga xos bo'lgan erkaklar raqs nomeri bittaga ko'paygan bo'lardi.

Keyingi ijro etilgan raqs O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Erkin Qaxxorov tomonidan yangicha ko'rinishda jamoaviy qilib sahnalashtirilgan "Dashnobod" raqsi bo'ldi. Raqsni "Navro'z" raqs ansambli yigitlari ijro etishdi. Bu raqsni ko'p yillar oldin N.Shermatov juda maromiga yetkazib ijro etgandi, bugunga kelib ot o'rnini toy bosar degandek N.Shermatovning shogirdi E.Qaxxorov raqsni yanada boyitib 8 ta yigitga jamoaviy shaklda sahnalashtirdi. Biroq sahnada bu raqs uchun 8 ta yigit biroz ko'plik qildi meni nazarimda, negaki, raqs harakatlari deyarli barchasi keng qo'llarni yonlariga ochgan holda sakrab, yugurib bajariladi, shuning uchun ham yigitlarni 4 taga kamaytirish kerak. Shunda raqs yanada aniq va tartibli chiqadi, aniqroq qiladigan bo'lsak raqsda insonni jig'iga tegadigan shira ko'payib ketgan, shuni biroz kamaytirsam, me'yorida bo'lardi degan umiddaman. E.Qaxxorov boshqa ijodkorlardan yosh bolalar bilan ko'proq

³⁹ Ўзбекистон санъат арбоби Шокир Ахмедов билан суҳбат. Суҳбатлашди. Н.Ғофуров. 26.01.2018.

ijod qilishi bilan yaqqol ajralib turadi. Yaqindagina Qozog'iston Respublikasining Almata shahrida bo'lib o'tgan VI Xalqaro "Arleu" raqs ko'rik tanlovida ham E.Qaxxorovning shogirdi **Haydarov Diyorbek "Baliqchi"** raqsi bilan qatnashib 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

"Baliqchi" raqsini ilk bor o'zbek erkaklar raqsiga ulkan hissa qo'shgan ustoz san'atkor Uchqun G'aniyev ijro etgan. Ammo istiqlol yillari baliqchi raqsi deyarli umuman ijro etilmay qo'yilgandi. Sekin-asta bu raqs harakatlari, syujeti unutila boshlandi, biroq bugunga kelib o'zbek erkaklar raqs san'atida shijoat bilan mehnat qilib kelayotgan Erkin Qaxxorov bilan birgalikda ustoz O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Akbar Mo'minovdan "Baliqchi" raqsi tuzilishi, harakatlar ketma-ketligini yozib oldik va qaytadan sahnalashtirdi. "Baliqchi" raqsi quydagicha ijro etiladi: - Sho'x - shodon baliqchi qo'lida qarmoq va chuvalchang solingan chelak tutgancha baliq ovlagani bormoqda. Baliqchi boshiga Xorazimcha chugurma kiygan, ko'zaynak taqqan, uzun mo'ylov qo'ygan yuzlariga grim surgan, Xorazimcha yengil chopon kiyib ustidan belbog' bog'lagan xolda saxna ortida namoyon bo'ladi. Avval baliqchining o'ng oyog'i saxnaning bir chetidan ko'rinadi undan so'ng sekin burni va yuzi ko'rinib sekin asta quvnoq xolda saxnaga chiqib keladi. Saxnada turub aniqrog'i daryo yoqasida turib baliq ovlashga joy tanlay boshlaydi, joy tanlab bo'lgach qarmoqqa chuvalchang ildirib suvga tashlaydi va baliq tushushuni kutib turadi. To baliq qarmoqni tortgincha daryo bo'yida raqs tushadi, o'zicha xayol suradi. Shu vaqt baliq qarmoqni tortadi buni ko'rgan baliqchi xursand bo'lib qarmoq tomon yuguradi. Qarmoqni olib ko'rsa baliq yo'q, aksiga olib chuvlachangni xam yeb ketgan. Baliqchi afsuslanib yana qaytadan qarmoqqa chuvalchang ilib suvga tashlaydi va kuta boshlaydi. Bu vaqt ichida baliqchi agar baliq tushsa maza qilib pishirib yeman deb yana quvnoq raqs tushadi. Kutulmaganda qarmoq qimirlaydi, baliqchi yugurib borib uni tortadi va katakon baliqni ko'rib quvonib ketadi, hamda yana raqs tushadi. Baliqni o'ynatib osmonga otadi rosa quvonadi oxirgi gal baliqni tepaga otib o'ynaganda kutulmaganda baliq daryoga tushub ketadi. Bundan baliqchi rosa afsuslanib xafa

bo'ladi, qaytadan yana qarmoqqa chuvalchang ilib suvga tashlaydi, bu gal birdan qarmoq qimirlaydi baliqchi yana xursand bo'lib qarmoqni tortadi ne ko'z bilan ko'rsinki qarmoqqa baliq emas qisqichbaqa ilinibdi. Baliqchi mayli deya qisqichbaqani ushlamoqchi bo'ladi, shunda qisqichbaqa uni qo'lini tishlab oladi. Bu og'riqdan baliqchi rosa qiynaladi bu qiynalishini raqs orqali ko'rsatadi. Oxiri qisqichbaqani chelagiga solib qo'lini siltagancha saxnadan chiqib ketadi.

Shu o'rinda "Baliqchi" raqsining mohir ijrochisi Uchqun G'aniyev ijodi xaqida ham qisqacha to'xtalib o'tsak; Raqs san'atida o'ziga xos usulga ega bo'lgan, o'zining betakror xarakatlari bilan boshqa raqqoslardan ajralib turgan, ko'pgina yegitlar raqsining birinchi va mohir ijrochisi, hamda bugungi kunda raqs san'atida ijod qilib kelayotgan bir qancha taniqli raqs ustalarining ustози O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Uchqun G'aneyev o'zbek erkaklar raqsi rivojida eng katta xissa qo'shgan iodkorlardan biridir.

U. G'aneyev 1926-yil 7- noyabrda Toshkent shahrida ishchi oilasida tavalud topdi. Bu ijotkor raqs olamiga o'z qiziqishlari va xudo bergan iste'dodi orqali kirib keldi. Yosh raqqosni ota tomondan ham, ona tomonidan ham raqsga aloqador biror insoni bo'lmagan. Ammo u yuqtirilgan iqtidor soxibi bo'lganligi uchunmi bu soxaga qiziqib astoyidil xarakat qila boshladi. Raqqos xech bir raqs soxasida talim beradigan dargoxda taxsil olmagan. Aksincha ustoz shogird an-anasiga ko'ra XX asrda san'at olamida dovruc qozongan Usta Olim Komilov, Isoxor Oqilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva singari ustozlardan raqs sirlarini mukammal o'rgangan hamda birga ijod qilishgan. U.G'aneyev o'zbek raqs san'atini eng gullagan davrida ijodiy faoliyatini olib borgan. Raqqosning mashxur dunyoga tanitgan raqslari "Cho'pon", "Baliqchi" va "Xindcha", "Uyg'urcha", "Andijoncha", "Katta o'yin" va "Xavaskor" raqslaridir.

- Raqqos bu raqslarni ijro etganda bor vujudi bilan raqs olamiga singib ketardi. Men o'z ko'zim bilan ko'rganman Uchqun akaning raqislarini. Xatto Uchqun aka raqs tushayotganda shunaqangi berilib o'ynar ediki u raqsdan roxatlanayotganini ko'rib biz ham zavqlanib raqs tushgimiz kelardi. U.G'aneyevning raqslarida keskin

xarakatlardan ko'ra mayin yoqimli xarakatlar ko'p edi. Bundan tashqari u boshqa o'zbek raqqoslaridan o'zining beg'uborligi va har doim raqs jarayonida tabassum bilan xarakatlarni moxirona ijro etishi bilan ajralib turardi⁴⁰. Deb eslaydi teatr tanqidchisi Qamariddin Orteqov.

Raqqosning qizi "Baxor" ansambilining raqqosasi Jonon G'aneva o'z otasini shunday yodga oladi. – Otam raqsni juda sevardilar. Xar doim bizning uyumiz raqs shinavandalari, san'atkorlar bilan to'la bo'lardi. Goxida onamni jig'iga tegib – oyi eringizni shuncha raqqosalardan rashk qilmaysizmi desam? Oyim – xa qizima men otangni manashu raqs tushushini ko'rib oshiq bo'lganman. Xaqiqiy san'at egasi xech qachon oilasiga xiyonat qilmaydi degan edilar. Otam xar doim uyga o'zi va do'stlari bilan tushgan suratlarni olib kelib osib qo'yardilar, hamda ukam va meni yonlariga chaqirib "Qizim bu meni boyliklarim! Men bu olamga kelib shu suratlardan o'zga dunyo molini yig'madim" degandilar⁴¹.

U.G'aneyev o'zbek raqslari bilan bir qatorda juda ko'p xalqlar raqslarini ham ijro etgan raqqosdir. Ayniqsa raqqos hind xalq raqslarini sevib ijro etgan. Hind xalq raqslari xarakatlari ko'p o'ta memikalarga boy bo'lsada U.G'aneyev bu raqslarni qoyilmaqom qilib ijro etgan. Hatto raqqosning raqslarini ko'rgan shoirlar she'rlar ham yozishgan. Shunday shoirlardan biri, o'z davrining mashxur ijotkori Habibiyy 1955-yilda "Uchqun o'ynadi"⁴² nomli quydagi sherni bitgan.

Sahnada gul-gul yonib, bir qaddi mavzun o'ynadi,
Bilmadim ko'z tindi yo ko'kdan tushub kun o'ynadi.

To'ldi qarsak zal aro, bo'ldi talab uzra talab,
Zavqi roxatdan qalblarni mamnun, o'ynadi.
Charx urib aylandi, ko'rdim, gir-gir aylandi boshim,
To'xtamay boshimda go'yo charxi gardun o'ynadi.

⁴⁰ Teatr tanqidchisi Qamariddin Orteqov bilan suhbat. Suhbatlashdi. N.G'ofurov. 18.03.2018.

⁴¹ U.G'aneyev qizi Jonon G'aneva bilan suhbat. Suhbatlashdi. N.G'ofurov. 10.11.2015.

⁴² U.G'aneyev yashagan uydan "Estaliklar" albomidan olindi. 1955 y.

Moxirona ko'rsatib san'atda rango-rang xunar
Qilgudek minglab tomoshabinki majnun, o'ynadi.
Bora-bora avj olib, o'rta b vujudimni butun.
Ishq o'tidan sachragan qalbimda uchqun o'ynadi.
San'atni san'atshunos Eron, Xindistonga
Ko'rsatib, elni qilib shaydoyu maftun, o'ynadi.

Bir ko'rib, ming ofarin, dedim Xabibiy, tan berib.
Har qadamda kashf etib, hikmatli mazmun o'ynadi.

Shoir Xabibiy tomonidan yozilgan bu go'zal misralar raqqosning o'z davrida naqadar moxir ekanidan darak beradi. U.G'aneyev ilk bor ijro etgan raqslari xali xanuz yosh raqqoslar tomonidan ijro ettilib kelinmoqda. Bu inson o'z raqslari bilan el qalbiga kirib borgan, o'zbek yegitlar raqsining xaqiqiy jonkuyari desak xato bo'lmaydi.

U.G'aneyev o'z ijodiy faoliyatida faqatgina ijrochi bo'lib emas balki baletmestrlik ham qilgan. Raqqos tomonidan bir nechta betakror raqslar saxnalashtrildi. Bu raqslar faqat yegitlarga emas balke qizlar uchun "Farg'ona ufori", "Pomircha", "Buxorocho", "Xorazimcha", "Qo'sh qars", "Xindcha" va ommoviy raqslarni sahnalashtirgan. Baxor raqs ansambili qizlari bilan esa "Gang qizi", "Bangladeshcha raqs", "Yomg'irga nola" kabi bir qancha ajoyib raqslarni sahnaga qo'ygan. U.G'aneyev ijodida "Baliqchi" va "Cho'pon" shox raqs xisoblanadi. Bu raqslar raqqosning eng sevimli raqslaridan bo'lgan. Baronoviskiy tomonidan sahnalashtirilgan bu ikki raqs raqqos ijodida o'zgacha o'ringa ega. Yaniy U.G'aneyev qayerda birorta bayram, to'y yoki shunga o'xshash bazimda raqs tusha boshlasa, xalq raqqosdan "Cho'pon" va "Baliqchi" raqsini ijro etib berishini so'rardi. Bu raqslar sodda ammo chuqur manoga egaligi bilan, oddiy mexnatkash xalq o'zini shu raqslarda ko'rolganidan balki ularga ko'proq

yoqqandir. Bu ikkala raqs ijrosi xaqida o'z davrida juda ko'p gazeta va jurnallarda bir biridan qiziqarli maqolalar ham yozilgan. Shu maqolalardan birida shunday jumlar bor: "Uchqun G'aneyev sahnada o'ynar ekan, uning chaqqonligidan, mimikasidan, erkin xarakatidan ijrochining o'z ishini qanchalik sevishi, o'z ustida tinmay qunt bilan ishlashi tomoshabenga yaqqol sezilib turadi". Bunday jumlar raqqos "Baliqchi" raqsini ijro etganida aytilgan. Negaki "Baliqchi" xazil raqsi bo'lib, amudaryo bo'ylarida yashaydigan yurtdoshlarimizning baliq ovi jarayoni gavdalantirilgan. Bu raqs ijrosi haqida O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Akbar Mo'menov shunday dedi "Meni o'zim ham bu raqsni ijro etganman. Shu narsani ochiq aytish kerakke xech bir raqsni "Balqchi" raqsidek to'lqinlanib, roxatlanib ijro etmasdim. Chunki bu raqs boshqacha edi. Uchqun aka shu raqsni ijro etsa butun zal tinmay chapak chalardi. Negaki raqs xazillar ustida qurulgan bo'lib, raqqosning kiyimlari ham anteqa bo'lardi. Masalan u uzun mo'ylov yopshtirgan, katta oynasi yo'q ko'z oynak taqqan,uzun beo'xshov qarmoq va qo'pol chelak ko'targan xolda saxnada namoyon bo'lardiyu, o'zining bir-biridan qiziq xarakatlari bilan xammani kuldurardi. Bu raqsni ko'rgan inson xandon otib kulishdan o'zini tiya olmasdi. Ammo raqs zo'ridiyu uni ijro etadiganlar kam edi, chunki bu raqs kuchli aktyorlik maxorati talab qilardi. Uchqun akada bo'lsa bu qoblyat bor edi. U inson xaqiqiy raqs uchun tug'ulgan ijotkordir. Achinarlisi shunday ajoyib raqs, Amudaryo bo'ylarida yashaydigan xalqlarning mehnat jarayonini aks ettirgan san'at asari yo'qolib bormoqda. Bu raqsni raqqoslar ijro etmasligini ham sababi bor. Buni o'ynash uchun ko'p mexnat kerak, chunki raqs ma'lum bir voqiyalikdan iborat. Shuning uchun ham U. G'aniev sahnaga chiqqanda xalq raqqosdan "Baliqchi" raqsini kutar edi, negaki xalqimiz bu raqsni qanchalik mashaqqatli mehnat talab qilishini bilishardi".

U. G'aniev shunaqangi betakror iste'dod sohibi bo'lganlar. Balki bunday iste'dod egasi endi qayta tug'ulmas, lekin u inson boshlab bergan yo'l shogirdlari tomonidan davom ettirilishiga ishonamiz.

Mana shunday ijodkorlar mehnati evaziga o'zbek milliy erkaklar raqsi avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

Shu kunlarda qizg'in ijod qilayotgan O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Shokir Axmedov tomonidan yangi **“Olov yigitlar”** raqsi sahnalashtirildi. Bu raqsni sahnalashtirish jarayoniga E.Qaxxorov yaqindan yordam berdi. Raqsda o'zbek yigitlarining shijoati, chapaniligi, o'ziga bekligi yaqqol ochib berildi. Raqsni TDMRXOM bo'g'inidagi Xoreografiya maktab va kolleji talabalari ijro etishdi.

Mana shunday ajoyib betakror raqslar raqs ustalarimiz tomonidan sahnalashtirilib kelinmoqda. Bunday ijodkorlar bor ekan o'zbek milliy erkaklar raqsi to'la-to'kis kelajak avlodga yetib boradi. Biz esa ulardan yangidan-yangi yigitlar raqslarni kutib qolamiz.

Shu bilan birga o'zbek erkaklar raqsi istiqloq yillarida qay darajada ravnaq topayotganligini yosh raqqoslarimiz qo'lga kiritayotgan yutuqlardan ham bilsak bo'ladi. Bizning yosh ijodkorlarimiz o'zbek degan millatimizni nomini yuksaklarga ko'tarib, dunyo xalqlariga bizning raqs san'atimizni qanchalik betakror, yuksak ekanligini ko'rsatib qaytmoqda. Bunday jasorat egalarini bugungi kunda ko'plab ko'rishimiz mumkin. Yoshlarimiz o'zlarining beqiyos talantlari bilan butun dunyo xalqlarini qoyil qoldirib qaytmoqda. 2016 yilda Rossiyaning Sochi shahrida bo'lib o'tgan xalqaro **“SOCHI-FEST”** festivalida yosh raqs ustasi, Toshkent Davlat Milliy Raqs va Xoreografiya oliy maktabi talabasi Tigran Abdullayev raqs yo'nalishi bo'yicha II – o'rinni qo'lga kiritdi. Bundan tashqari 2016 yilning o'zida Qozog'istonning Chimkent shahrida o'tkazilgan xalqaro **“Dunyo xalqlari raqsi”** festivalida Xoreografiya oliy maktabining uchta talabasi Tigran Abdullayev, Sherzod Kenjaboyev va Aman Rimbergenovlar I-darajali diplom bilan taqdirlandi, hamda Xoreografiya oliy maktabining jajji o'quvchisi Safaraliyev Rauan laureat bo'lib qaytdi. Festivalda T.Abdullayev **“Lagan”** hamda **“Gauchi”** raqslarini, Sh.Kenjaboyev **“Qarg'alar”** va **“Gauchi”** ni va A. Rimbergenov Qoraqalpog'cha **“Cho'pon”** raqsini, yosh ijrochi R.Safaraliyev

bo'lsa "Dilxiroj" va "Andijoncha" raqslarini ijro etishdi. Bu festivalda shogirdlari bilan birgalikda ishtrok etgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Erkin Qaxxorov festival haqida shunday fikrlar bildirdi "Biz bu festivalda o'z milliy raqslarimiz bilan qatnashdik hamda yuqori o'rinlarni qo'lga kiritdik. Men shu narsani g'ururlanib ayta olamanki, bugungi kunda o'zbek yigitlar raqsi qaysi festival yoki konkursa borishidan qat'iy nazar yuqori o'rinlarni qo'lga kiritib qaytmoqda, bu yutuq bizning faxrimiz, qolaversa biz ustozlarning yuzimizdir".⁴³ Yana Qozog'istonda o'tkazilgan festivalda bo'lib qaytgan Xoreografiya oliy maktabida ko'p yillar ustozlik qilgan, Filologiya fanlar nomzodi Shamel Krilovich ham festival haqida o'z fikrlarini bildirdi "Men juda ko'p xalqaro festivallarni ko'rganman lekin bunaqasi hali bo'lmagan. Sahnada o'zbek yigitlari raqs ijro etar ekan butun zal tik turgan holda qarsak chalib ularni olqishlardi, ayniqsa "Lagan" raqsida raqqos Tigran Abdullayev laganni boshiga qo'yib, bir joyda turib xuddi kulol dastgohidek chirpirak bo'lib aylanib laganni boshidan beliga, belidan boshiga olib chiqqan vaqti butun zal chapaklar va qiyqiriqlardan larzaga keldi. Yana boshqa xalqlar raqsidan "Gauchi" raqsini Sherzod Kenjaboyev ijro etdi. Endi bu holni ta'riflash qiyin, chunki shaxsan meni o'zim taniqli raqs ustasi Igor Moisiyevning raqqos yigitlari ijrosida bu raqsni eng yuqor darajada ijro etilganini ko'rganman, lekin bizning raqqosimiz ulardan o'tsa o'tdiki, ammo qolishmadi! Qoraqalpoq yigitlarimiz bo'lsa o'zlarining "Cho'pon" raqs bilan barchani lol qilib qo'ydi. Aka-uka Rimbergenovlar qo'llarida cho'pon tayoqlarini shunaqangi shiddatkorona o'ynatdiki, xuddi zal ular bilan birgalikda keng dalada musaffo osmon ostida, erkinlik quchog'ida zavqlanib yurgandek bo'ldi. Qoraqalpoq yigitlari raqsidan hali o'zlariga kela olmagan tomoshabinlar R.Safaraliyevning "Andijoncha" raqsini ko'rishib, butkul o'zbek yigitlar raqsiga qoyil qolishdi. Bu esa raqqoslarimiz qanchalik kuchli mahoratga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin, shu narsani ham aytilish joizki, yutuq bor joyda, albatta, kamchilik ham bo'ladi. Bizning raqqoslarimizga birdan-bir yetishmayotgan narsa bu ularning harakatlarni yodlab olganligi, to'g'ri harakatlarni yodda saqlash kerak, ammo

⁴³ O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Erkin Qaxxorov bilan suhbat. Suhbatlashdi. N.G'ofurov. 10.02.2016.

ularga ichki tuyg'ularni ham qo'shish lozim. Agar har bir harakatni faqat tananing o'zi ichki kechinmasiz ijro etsa bu narsa raqs emas, aksincha faqatgina jismoniy harakat bo'lib qoladi. Shu tomonlama raqqoslarimiz biroz oqsashmoqda lekin bu narsani ham sekin-asta mehnat jarayonida yo'lga qo'ysa bo'ladi degan umiddaman".⁴⁴ Bunday muvaffaqiyatlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'zbek erkaklar raqsi shu kunlarda yaxshi ravnaq topmoqda faqatgina uni qo'llash va kerak bo'lganda yordam berish lozimdir. qahramonlik ko'rsatsa bo'ladi faqatgina biroz harakat qilish kerak, albatta. Yuqorida nomlari keltirilgan yigitlarimiz mening nazarimda haqiqiy jasorat egalari. Ular o'zbek xalqining milliy urf odatlarini butun dunyoga tarannum etib, qanchadan qancha raqs ustalari orasida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishdi, bu juda katta muvaffaqiyat, bunday muvaffaqiyatni haqiqiy jasorat desak yanglishmagan bo'lamiz.

O'rni kelganda yuqorida nomlari tilga olingan bugungi kunning eng ko'zga ko'ringan raqqoslari Sherzod Kenjaboyev ijodi haqida bir oz to'xtalib o'tsak.

O'zbek raqs san'atida ijod qilgan barcha ijodkorlar dunyoni o'z raqslari bilan zabt etgan, ular boshlab bergan yo'lni esa bugungi kunda yosh raqqoslar davom ettirmoqda. Bu yoshlar ham ustoz san'atkorlar boshlab bergan yo'ldan borib bizning milliy erkaklar raqslarimizni ijro etib, raqs san'atini yanada yuksalishi hamda kelajak avlodga to'la-to'kis yetib borishi uchun qo'ldan kelguncha xizmat qilishmoqda. Bu ijodkorlar 2017-yilda munosib taqdirlandilar, jumladan o'zbek erkaklar raqs san'ati rivoji uchun ulkan hissa qo'shib kelayotgan O'zbekiston xalq artisti Qodir Mo'minov "Yilning eng yaxshi baletmeysteri", yosh raqqos Sherzod Kenjaboyev "Eng yaxshi raqs ijrochisi"⁴⁵ nominatsiyasiga ega bo'lishdi.

Sherzod Kenjaboyev haqida maqtanib emas g'ururlanib gapirsak to'g'riroq bo'ladi. Chunki u 2017-yil "Yilning eng yaxshi raqqosi" degan ajoyib nomga sazovor bo'ldi. Bu esa, biz raqs san'ati ijodkorlari uchun juda quvonarli holdir. Negaki ko'p vaqtlardan beri raqs olamida yigit raqqoslarga bo'lgan e'tibor

⁴⁴ Filologiya fanlar nomzodi Shamel Krilovich bilan suhbat. Suhbatlashdi. N.G'ofurov. 2016.

⁴⁵ N.G'ofurov: Kultura.uz.20.02.2017.

unchalik yaxshi emasdi, ammo mana bunday ajoyib taqdirlashdan so'ng, shu narsa aniqki, raqs san'atiga ham etibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Biz hali Sherzoddek raqqoslarimiz bilan juda ko'p faxrlanamiz, chunki o'tgan yillar davomida Sherzod singari yoshlarimiz dunyoning ko'pgina joylarida o'tkazilgan Xalqaro tanlovlarda raqs yo'nalishida qatnashib eng nufuzli o'rinlarni qo'lga kiritib qaytishgani haqida yuqorida yozib o'tdik. Birgina Sherzodning o'zi bir necha Xalqaro tanlovlarda birinchi hamda oliy o'rinlarni zabt etib o'zbek milliy raqs san'atini yuksak cho'qqilarga ko'targan edi. Mana bugun uning qilgan shuncha mehnatlari munosib baholanib yilning eng yaxshi raqqos nomiga sazovar bo'lib turibdi. Bu nom Respublikamiz tarixida menimcha ilk bor yigit raqqoslardan Sherzodga nasib etdi. Chunki ko'p hollarda raqqosalarimiz taqdirlanib yigitlarimiz doimo bir chetda qolib ketaverardi.

Sherzod nafaqat ijrochi balki merosiy raqslarimizni tiklash borasida ham ko'zga ko'rinarli ishlarni amalga oshirmoqda. Shulardan biri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Narziddin Shermatovdan keyin deyarli hech kim ijro etmay qo'ygan milliy, merosiy "Dashnobod" raqsini qaytadan tikladi va bu raqs bilan ko'pgina tanlovlarda qatnashib yuqori shoxsupalarni zabt etdi. Shu bilan birgalikda "Lagan", "Dilhiroj", "Qarg'alar", "Xorazmcha" kabi bir qator milliy yigitlar raqslarini ijro etib o'z mahoratini boyitdi.

Ikkinchi Yosh raqqos Tigran Abdullaev xozirda bizning TDMRXOM oligohimizning bitiruvchi talabalaridan.

U 1996 yil 27- yanvarda Jizzax viloyatida tug'uldi. Yoshligidan qiziqqon, bilimga chanqoq bo'lganidan 6 yoshida maktabga bordi xamda bilimga ishtiyoqmandligini isbotlab 3-sinifdan 5-sinifga sakrab o'tdi. Tigran tengdoshlari orasida o'zining ajoyib iste'dodi bilan ajralib turardi, maktabda o'tkaziladigan xar bir bayramda o'zining bolalarga xos quvnoq sho'x raqislari bilan qatnashar va barchani qoyil qoldirardi. Uning bu iste'dodini ko'rgan onasi Tigranni tumandagi 14-sonli musiqa va san'at maktabiga o'qishga berdi. Endi Tigran maktabga o'qish bilan bir qatorda museqa dargoxida ham talim ola boshladi. Avvalam bor u museqa

maktabida raqs sabog'i va shu bilan birgalikda ta'sveriy san'at, xamda fortapionani ham o'rganishga kirishdi. "Tigran jajji qo'llari bilan fortapiona chalar ekan museqa ohangiga mos tarizda oyoqlarini ham o'ynatar, chalishni boshlagan kuyi oxiriga yetmasdan uning oxangiga raqs tushib ketardi"⁴⁶ deb eslaydi onasi. Shu zayilda bola qalbida raqs shakillana bordi, u bir dam raqs xaqda o'ylamasdan tura olmaydigan bo'ldi, bu qiziqish esa uni TDMRXOM dargoxiga yetakladi.

Tigran 2009 - yil 7- sinifdan TDMRXOMga o'qishga keldi va bu yerda raqs sirlarini mukammal o'rgana boshladi. U o'zining betakror istedodini ustozlariga ko'rsata oldi, shu sababdan ham maktab mamuriyati 2013- yil iyul oyida Tigranni Rossiyaning Moskva shaxriga zamonaviy raqs turlarini mukammal o'rganishi uchun yuborishdi. U yerda esa mashxur teatr va kino artisti Yegor Salenkovdan "Madern jazz" yo'nalishida raqs saboqlarini oldi va shu yerda o'tkazilgan "Новые имена" festivalida deplom bilan taqdirlandi. Tigran o'ziga qaratilgan bunday katta etiborni oqlashga xarakat qila boshladi hamda 2014 - yil mart oyida Qozog'istonning Almata shaxrida bo'lib o'tgan "Orleu" xalqaro ko'riktanlovida ishtirok etdi va 12 ta davlatdan kelgan 107 ta qatnashchilar orasida 1- darajali diplom bilan taqdirlandi xamda TDMRXON oligohiga imtyoz asosida grantga o'qishga imtixonsiz qabul qilindi. Tigran "Orleu"da o'zimizning milliy raqsimiz "Tog'ora (lagan) raqs"ni va Argentinacha "Gauchi" raqslarini ijro etib hammani xayron qoldirdi. Tanlov oldidan u taniqli raqs ustalari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Erkin Qaxxorov va moxir ustoz Xayitaleva Nargiza singari san'atkorlar qo'lida tayyorlandi.

Tegran o'zimizning milliy raqslar bilan bir qatorda boshqa xalqlarning xam raqslarini o'rganmoqda, bu bilan o'zbek milliy raqs san'atini boyitib ayniqsa erkaklar raqsining rivojlanishiga o'z xissasini qo'shmoqda. Shu sababli Tigran Abdullaev bizning oliygohimiz faxri.

⁴⁶ Tigranning onasi. Vanoyan Mariyetta Ovsepovna bilan suhbat. Suhbatlashdi. N.G'ofurov. 23.09.2017.

Bu ikki yosh ijodkor xaqida ko'plab yozish mumkun, chunki raqqoslarimiz yosh bo'lishiga qaramasdan tarixda birinchi marta yurtimizda tasis etilgan "Nihol" mukofoti bilan 2017 yilda taqdirlandilar. Bundan ko'rinadiki raqqoslarimiz o'z iste'dodlarini yetarlicha namoyon qila olishigan, shuning uchun ham ularning kamtarona mexnatlari yuqori darajada baholandi.

Biz mana shunday raqqoslarimiz borligidan hamisha faxrlanamiz va ular o'zbek milliy yigitlar raqsini yuksaklarga ko'tarishiga hamda kelajak avlodga yetkazib berishiga ishonamiz.

2.1. O'ZBEK ERKAKLAR RAQSIDA MILLIY QADRIYATLARNING IFODALANISHI

Bugungi kunda erkaklar raqsidagi milliy qadriyatlarni saqlab qolish hamda raqslarimizdagi o'zbekona an'analarni tiklash asosida qilinadigan ishlar talaygina. Bular orasida raqqos yigitlarni tarbiyalash, deyarli unutilayozgan raqslarni qayta tiklab, sayqal berish, yohud ularni jonlantirish kabi ishlar alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa bugunga kelib ijro etilayotgan erkaklar raqslarida milliy qadriyatlarimiz qanchalik darajada saqlanib kelayotganligi eng muhim omildir. Biz raqslarimizda milliy qadriyatlarimizni faqatgina liboslarda emas balki raqs harakatlarida ham ko'rishimiz kerak. Jumladan bu kabi raqslarni hozirda sanaydigan bo'lsak unchalik ko'p emas, bor bo'lgan taqdirda ham barmoq bilan sanagulik xolos. Bunday raqslardan biri, ya'ni, o'zida milliy qadriyatlarimizni aks ettirgan, o'zbek erkaklar raqsi an'analarga sodiq qolgan holda ijro etilayotgan raqs bu "Dilhiroj"dir. Biz "Dilhiroj" raqsi haqida gapirar ekanmiz avalambor bu raqsni yaralish tarixiga nazar tashlamog'imiz lozim.

Dilhiroj raqsi o'zining aniq va chiroyli harakatlarga ega ekanligi bilan, qo'l va oyoq harakatlarining uyg'unligi, raqs jarayonida ichki kechinma muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan insonni o'ziga jalb qiladi. Bu raqs ijrosi jarayonida raqqos o'zining dardini, bor mahoratini, o'zbek yigitlariga xos bo'lgan mardligi va

chaqqonlikni ko'rsatadi. Ijrochi raqs davomida sahna bo'ylab gorizontal va vertikal hamda aylana shaklda harakat qiladi. Dilhiroj raqsida nozik harakatlar yo'q. Barcha harakat va holatlar o'tli, shiddatkor hamda aniqdir. Raqs davomida tushib chiqishlar, ya'ni, sekin harakatdan birdan tezlashish, tez harakatdan kutulmaganda sekin holatga o'tish joylari mavjud. Bunday murakkab jarayonlarda raqqosning qanday mahoratga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Dilhiroj raqsida kiyiladigan liboslar ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu liboslar raqs jarayonida ma'lum bir ma'nolarni beradi hamda raqsning boyishiga sababchi bo'ladi. Bu raqsda raqqos boshiga Farg'onacha do'ppi va uning ustidan peshona bandiga kichik qiyiqcha bog'laydi. Qiyiqchaning bog'lanadigan tomoni har doim chap tomonda bo'ladi. Dilhiroj raqsining kiyimlari boshqa raqslardan yana bir xususiyati bilan farq qiladi, ya'ni, bu raqsda raqqos ikkita bir katta- bir kichkina qiyiqchalardan foydalanishidir. Kichkina qiyiqcha peshona bandga bog'lansa, katta qiyiqcha esa belga beqasam yengil to'n ustidan bog'lanadi.

Raqqos egniga oq yaktak va uning ustidan beqasam matosidan tikilgan to'n kiyadi hamda bu to'nning o'ng yengini kiymasdan qayirib belbog'iga qistirib qo'yadi. Bu holni, ya'ni, to'nning o'ng yengini kiymasdan belbog'iga qistirib qo'yishni turli xil ma'nolari bor. Birinchisi insonning boshiga biror bir tashvish tushib sevikli yoridanmi, yaqin insonidanmi, ayrilib uning bir qanoti sindi, suyangan bir ustuni ketdi degan ma'noni bersa, boshqa fikr mehnatkash xalq dalada mehnat qilib, kun tig'ida dimiqib, biroz shamollash niyatida to'nini bir yengini yechib yurgan deyilsa, yana boshqasi bu hol ko'proq vodiylklarga xos, ya'ni, vodiyl yigitlari choyxonalarda o'tirishib dam olishib keyin uylariga ketar chog'ida to'nlarining bir yengini kiymasdan mana ko'rib qo'yinglar men shunday zo'rman deb ko'kragini kerib yurishgan degan ma'nolarni ham beradi. Raqqos beldan past qismiga esa qora shalvar va oyog'iga naqshinkor hamda yengil etik kiyadi. Bu etikning naqshinkorligining sababi shundaki, o'zbek xalqining juda e'tiborli ekanini oddiygina oyoq kiyimiga ham did bilan naqsh solishi, bu xalqning naqadar estetik qarashlari yuqori ekanidan dalolat beradi. Mana shunday boy

ma'nolarga ega bo'lgan liboslar dilhiroj raqsiga yanada ko'rk bag'ishlab har tomonlama mukammal va serjilo bo'lishiga yordam beradi.

Bu raqs to'g'risida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "Dilhiroj" raqsining mohir ijrochisi Narziddin Shermatov bilan bo'lgan suhbatda shunday fikrlarni bildirdi: - "Dilhiroj" bu shunday raqski, bunda bizning milliyligimiz aks etgan. Men bu raqs bilan Yevropa sahnalarini zabt eta olmaganman, chunki ular ko'p ham "Dilhiroj"ni tushunisha olmagan, aniqrog'i hazm qilisha olmadi. Faqatgina san'atni sevadiganlari ko'proq qiziqardi. O'zimizda bo'lsa "Dilhiroj"ga go'yo afsonaviy raqsdek qaralardi. Kim qanday qaramasin bu raqs meni yongan yuragimning kuli. Men faqatgina shu raqsni ijro etganda qalbimdagi dardlarimdan xalos bo'lardim. Shu sababdan "Dilhiroj"ning ma'nosi nima deb so'rashsa "barcha raqqoslarning qalbidagi dardi" deb javob beraman. Shu joyda men bir sirni ochay, shunday vaqtlar ham bo'ldiki men ko'p raqqoslarga bu raqsni o'rgatgim kelmadi, aniqrog'i ulardan qizg'andim. Negaki ular bu raqsni xor qilishidan qo'rqardim. Chunki bunga meni qancha mehnatim sarf bo'lgan. Qo'pol qilib aytganda "bu raqsni o'zim tuqqanman". Bunday mashaqqatli mehnat evaziga qo'lga kiritilgan yutug'imni to'g'ri kelgan insonga berolmasdim."⁴⁷

Men Dilhirojning kuyi ustida ham uzoq izlandim. Avvalo, dilhiroj kuy shaklida ommalashganini, uning musiqasi juda uzoq vaqtdan xalqimiz orasida ijro etilib kelinganini aytib o'tishim joiz. Bu musiqaning paydo bo'lishi haqida ko'pgina og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan afsonalar mavjud, shulardan biri qadim zamonlarda juda mohir bir doirachi yigit yashab o'tgan ekan, shu doirachi bir saylda ajoyib bir go'zal qizni ko'rib qoladi va unga ishq tushadi lekin qancha vaqtlar o'tmasin yigit qizga o'z muhabbatini oshkora qilolmaydi ammo o'z doirasi orqali yuragidagi bor muhabbatini kuy timsolida ijro etadi. Oradan yillar o'tsa ham yigit shu muhabbat bilan yashaydi, ammo biror marta ham o'zi ko'ngil qo'ygan qizga uni yoqtirishini aytolmaydi. Buning o'rniga har bayram va sayllarda o'z doirasi ila ko'ngilni tirnaydigan kuylar chalib o'tadi. Bu kuyni vaqtlar o'tishi

⁴⁷ O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Narziddin Shermatov bilan suhbat. Suhbatlashdi. N.G'ofurov. 21.05.2015

natijasida qanchadan qancha oshiq yigitlar ijro etib, uni boyitib borishgan va ko'pgina xalq cholg'u asboblari ham qo'shilib borgan, lekin musiqa boshlanishida doira ijrosi saqlanib qolingan. Bu esa sozandalar tomonidan dilhiroj kuyini afsonaviy birinchi ijrochisi doirachiga bo'lgan hurmatlari bo'lsa kerak. Shu sababli ham bu kuy aniq bir kishi tomonidan yozilmaganligi tufayli xalq kuyi deb qaraladi.

Endi dilhiroj ashulasiga kelsak. Bu ashulani ham ilk bor kim ijro etgan degan savol tug'iladi. Bunga men aniq javob topish maqsadida taniqli san'at ustasi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanat arbobi, professor Temur Maxmudovdan shu haqida so'radim⁴⁸. T.Maxmudov bo'lsa shunday fikrlar bildirdi: "Men ko'p yillardan beri san'at ichida yuribman va ko'pgina ustozlar suhbatida "Dilhiroj" ashulasi tarixi to'g'risida ham bir necha martalab eshitganman. Ustozlardan eshitganim shuki XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida bizning o'lkamizda to'rt buyuk san'at ustalari yashab ijod qilishgan. Bular Buxoroda Domla Halim Ibodov, Samarqandda Xoji Abdulaziz Rasulov, Xo'jandda Sodirxon hofiz Bobosharifov va Toshkentda Mulla To'ychi Toshmuhamedovlar bo'lishgan. Bu hofizlar o'z iste'dodlari bilan butun O'rta Osiyo mamlakatlarida dong taratgan san'atkorlar bo'lishgan. Shu davrlarda Buxoro amiri Amir Olimxon yilda bir marta butun O'rta Osiyodagi eng taniqli san'atkorlarni chaqirib o'z saroyida bazm o'tkazarkan. Amir bo'lsa yaxshi san'atkorlarni chaqirishni saroy bosh hofizi Domla Halim Ibodovga topshirar ekan. Mana shunday bazmlardan biriga Domla Halim Ibodov Samarqanddan Xoji Abdulaziz Rasulovni, Xo'janddan Sodirxon hofiz Bobosharifovni va Toshkentdan Mulla To'ychi Toshmuhamedovlarni chaqiribdi. Ana endi bazm boshlanibdi, birinchi bo'lib Xo'jandlik Sodirxon hofiz "Sodirxon ushshog"ni aytibdi, undan so'ng Fuziliy g'azaliga Eshonxo'ja Vola tomonidan yozilgan "Bozurgoni" muxammasini Samarqandlik hofiz Xoji Abdulaziz ijro etibdi. Ammo bu ashula Amirga yoqmabdi negaki, ashulada

Qila boshlading manga zulmkim, sitam etdi jabru jafolaring,

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanat arbobi, professor Temur Maxmudov bilan suhbat. Suhbatlashdi. N.G'ofurov. 18.12.2015

Ki vafoga va'dalar aylabon, qani va'dalarga vafolaring?

degan so'zlar borligi Amirning shaxsiyatiga tegib ketibdi. Shunda Amir bu hofizni tez kelgan yurtiga qaytarib yuboringlar deb buyuribdi va domla Halimga boshqa biror yaxshirog'ini chaqir debdi. Domla Halim bo'lsa Toshkentlik To'ychi hofizni chaqiribdi. To'ychi hofiz esa "Chorgoh" ashulasini boshlabdi-yu, ammo Amirning salobati bosganidan hech "Men tashnaman visolingga" degan jumladan naryog'iga o'tolmay nuqul ikki uch marta shu jumlani qaytaribdi. Shunda Amir "Mayli bu ashulangni to'xtatda, boshqa birini ko'ngilga yoqadiganidan ayt" debdi. Shundan so'ng To'ychi hofiz afsonaviy dilhiroj kuyini chalib Fuzuliyning siynaxiroj deb nomlangan

Hosilim barqi havodisdan malomat dog'idir,

Masnadim ko'yi malomatda fano tuprog'dir,

Zor ko'nglim tanda zindoni balo dutsog'idir

Rahm qil, davlatli sultonim, muruvvat chog'idir.

Mana shu misralari bilan boshlanuvchi she'rini ijro etibdi. Bu ashulani birinchi bor To'ychi hofiz o'sha Amir saroyida dilhiroj kuyi ijrosida aytadi va shundan so'ng amir bu yurakni tirnovchi kuyni tinglab, kuyga mos ijro etilgan ashulani eshitib g'azabi bosilibdi hamda hofizga ko'p sovg'a salomlar berib javob bergan ekan. Shundan so'ng, dilhiroj kuyiga Fuzuliy g'azalini ijro etish an'anaga aylangan ekan. Mana hozir ham bu ashula turli xalq ardog'idagi hofizlar tomonidan ijro etilib kelinmoqda." deb T.Maxmudov o'z so'zini yakunladi. Shu tariqa dilhiroj ashulasi o'zida mana shunday boy tarixni qamrab olganligini guvohi bo'lamiz.

Bugunga kelib ham bu raqs o'zining asl holatini yo'qotmagan holda ko'pgina yosh raqqoslarimiz tomonidan ijro etilmoqda. Bu esa dilhiroj raqsi o'zining maftunkorligini, jozibadorligini hamon saqlab qolganligidan dalolatdir.

Yana shunday o'zida milliy qadriyatlarimizni saqlab kelayotgan raqslardan biri bu "Lagan" raqsidir.

Xalqimiz orasida azaldan “Lagan”⁴⁹ raqsi tug‘ma talant egalari tomonidan ijro etilib kelingan. Ushbu erkaklar raqsi Farg‘ona uslubida yaratilgan bo‘lib, raqs xalqimizning mashhur doira, nog‘ora, surnay, karnay kabi cholg‘u asboblari jo‘rligida ijro etiladi. Bu cholg‘ularga raqqosning qo‘llaridagi qayroq toshlar jo‘r bo‘ladi. Raqs jarayonida raqqos qora rangdagi to‘rt burchakli garimdorili oq gulli do‘ppida bo‘ladi. Bu do‘ppi biroz sovuq suv bilan namlanadi, chunki namlangan do‘ppi boshga yopishib turadi hamda laganni sirpanib ketmasligi uchun xizmat qiladi. Do‘ppi tushib ketmasligi uchun uning ustidan peshonaband bog‘lanadi. Egnida esa beqasam to‘n, ichidan oq yaktak kiyiladi. “Belbog‘” maxsus to‘rtburchakli ro‘mol bo‘lib, uchburchak holda buklanadi va belga bog‘lanadi. So‘ng qora shim va qora laklangan etik kiyiladi. Shuningdek raqqos qo‘lida ikkita qayroq tosh, bittasi temirdan 16 sm uzunlikda, ikkinchisi esa toshdan bo‘lib 10 sm bo‘ladi. Toshdan yasalgan qayroq tosh katta barmoq ko‘magida qo‘l kaftiga bosiladi. Temirdan yasalgan qayroq tosh ham xuddi shunday qo‘yilib qo‘lning uchinchi va to‘rtinchi barmoqlar ko‘magida bir-biriga urilib chalinadi. Qayroq toshlarni yengil urgan holda raqqos o‘ziga xos ovozga ega bo‘lgan usullar yaratadi. Aytish joizki qayroq toshlar ikkita qo‘lda ham ushlanadi. “Lagan” raqsida asosiy narsa bu og‘irligi uch kilogram bo‘lgan, dur alyumindan yasalgan lagandir. Lagan ko‘rinishidan yengil bo‘lsada, ammo uch daqiqalik raqs jarayonida raqqosni juda toliqtiradi. Bu raqsning paydo bo‘lishi haqida taniqli raqqos O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Narziddin Shermatov shunday deydi – “Lagan” raqsining paydo bo‘lishi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu raqsni qachondan buyon xalq orasida ijro etilishi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q, lekin uning kelib chiqish tarixiga qarasak, qadimdan ota-bobolarimiz choyxonalarda osh damlashgan va ular osh yeb bo‘lgandan so‘ng taomning bor mazasi va savobi laganning tagida qoladi deb, bo‘sh laganga oz-moz suv yoki choy solib uni qo‘llarida aylantrishgan hamda suvni ichishgan. Shu tariqa bu hol sekin-asta kengayib raqs tusini olgan. Lagan raqsi ikki xil, ya’ni, oshni yeb bo‘lingan bo‘sh laganda va endigina osh suzilgan oshli laganda ijro etilgan. Bu raqs o‘zbek

⁴⁹ N.G‘ofurov: Kultura.uz.19.06.2017.

yigitlarining naqadar chaqqon ekanligini, ular qo'llaridagi laganni turli-tuman shaklda o'ynatib hammani hayron qoldirishini shu bilan birga o'zbek xalqi naqadar mehmondo'st ekanligini bildiradi.⁵⁰

N. Shermatov o'z so'zini tugatar ekan haqiqiy raqqos bu raqsni sopol laganda ham ijro eta olishini ta'kidlab o'tdi hamda o'zi bir necha bor sopol laganda raqs ijro etganligini va ko'p hollarda muvaffaqiyatli chiqib, ba'zan lagan qo'ldan tushib singan hollari ham bo'lganligini aytdi. N.Shermatovning aytishicha: “- lagan raqsini mukammal sahnaviy ko'rinishda raqqosga 1973-yilda ustози I.Oqilov sahnalashtirgan ekan”. Ammo ko'p hollarda bu raqs harakatlarini o'zi boshqa raqqoslardan ko'rib o'rgangan, faqatgina jiddiy harakatlarini I.Oqilov batafsil tushuntirib bergan. Biz bu mavzumizni to'liqroq bayon qilish maqsadida “Lagan” raqsini ijro etgan raqqoslar haqida ham ko'proq ma'lumot olish uchun O'zbekiston xalq artisti Viloyat Oqilovani suhbatga tortdik. Viloyat opaning aytishicha – Lagan raqsi o'zbek erkaklar raqsining shoh raqsi hisoblanadi, har bir o'zini o'zbek raqqosiman deb bilgan raqqos bu raqsni ijro etadi. Men lagan raqsini turli xil raqqoslar ijrosida ko'rganman, bular otam I.Oqilov, Q.Mo'minov va N. Shermatovlardir. Bu raqqoslar bitta “Lagan” raqsini har biri o'zgach ijro etardilar. Har bir raqqos bu raqsni ijro etganda o'z kechmishini, dardini va quvonchini ishor qilardi, balki shu sababdan ham bitta raqs va bir xil harakatlar bo'lishiga qaramay ular turli xil ijro etgandir. Meni ko'proq maftun qilgani bu otam I.Oqilovning shogirdi N.Shermatovning ijrosidagi “Lagan” raqsidir. N.Shermatov lagan raqsini bor vujudi bilan ijro etardi, u raqs tushayotganda butkul bu olamni unutib ibodatga sho'ng'igan mo'mindek, butun diqqatini shu raqsga qaratardi, raqs tugaganda esa u bor gunohlaridan shu raqs orqali poklangandek ko'rinar edi. U raqsni ijro etib bo'lgandan so'ng butun tanasi va ko'ylaklari jiqqa suv bo'lardi. Bu esa uning qanchalik “Lagan” raqsiga mehr qo'ygani, qolaversa bu raqs juda katta kuch va mashaqqat talab qilishidan darak beradi”. N.Shermatovni “Lagan” raqsining haqiqiy ustasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki u bu noyob raqsni kelajak

⁵⁰ O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Narziddin Shermatov bilan suhbat. Suhbatlashdi. N.G'ofurov. 21.09.2017.

avlodga etkaza oldi. V.Oqilovning aytgan soʻzlarini yaqqol dalili sifatida bugungi kunda N.Shermatovning shogirdlari oʻz ustozlaridan oʻrgangan “Lagan” raqsini hozirda ham mahorat bilan ijro etishayotganini misol qilishimiz mumkin. Bu shogirdlaridan biri Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist E.Qahhorovdir. E.Qahhorov oʻz ustozidan oʻrgangan “Lagan” raqsini ijro etish bilan bir qatorda raqs harakatlarini ham boyitib bormoqda va oʻz shogirdlariga oʻrgatmoqda.

Avlodlar osha oʻtib kelayotgan bu raqs halihanuz insonlar qalbini hayratga solmoqda. Bu raqs nafaqat oʻzbek xalqini, balki azaldan dunyo xalqlarini ham oʻziga rom etib kelgan. Bir vaqtlar “ Lagan “ raqsini N.Shermatov Yevropa mamlakatlarida ijro etganda Yevropa xalqi bu raqqosni magnit deb atashgan. Oʻzingiz xulosa qilingga, sahna oʻrtasida boshida katta lagan bilan raqqos qoʻllarini burgut qanotidek yonga choʻzgan holda avval chap tomonga bir joyda turgan holda kulolning dastgohidek aylana boshlaydi, boshida turgan lagan esa sekin –asta raqqos bilan birga aylanib, avval boʻyinga, soʻng yelkaga ana undan keyin belga tomon harakatlanadi, lagan belga kelgandan soʻng raqqos bir toʻxtab boshqa murakkab harakatlarni bajaradi va yana turgan joyida endi oʻng tomonga qarab aylanadi, raqqosning belida turgan lagan ana endi yuqoriga boshga tomon harakatlanadi oxiri koʻribsizki, raqqos boshida avval lagan qanday turgan boʻlsa hozir ham xuddi shunday turadi. Bunday murakkab harakatlarda ham laganing tushmasdan raqqosning tanasida yopishib turganini koʻrgan har qanday inson, albatta, raqqosni magniti boʻlsa kerak deb oʻylashi aniq. Bu hol yosh lagan raqsi ijrochilaridan biri E.Qahhorovning shogirdi T.Abdullayevda ham kuzatiladi. Tigran 2014 yil Qozogʻistonda oʻtkazilgan “Arliu” xalqaro koʻrik tanlovida “Lagan” raqsini ijro etganda , raqsdan soʻng baʼzi bir qiziquvchan tomoshabinlar uni yoniga kelib, bel va yelkalarini paypaslab mabodo magnit yoʻqmi deb ham soʻrashgan. Bundan shu narsa maʼlumki, yosh raqqos lagan raqsini mahorat bilan ijro etganligi uchun muxlislar shunday hayolga borishgan. Bir vaqtlar katta raqqoslar tomonidan ijro etilgan “Lagan” raqsi bugungi kunda qoʻrqmasdan ishonchli raqqoslar qoʻlida ekanligini baralla ayta olamiz.

Kiyingi o'zida milliy qadriyatlarimizni saqlab qololgan raqslardan biri bu "Dashnavot" raqsidir.

Ijodkorning qanchalik mahoratli ekani uning ishida ko'rinadi. O'zbek erkaklar raqs san'ati tarixida juda ko'p noyob bir-birini takrorlamaydigan raqslar bor. Bu raqslarni ko'plari shu kungacha o'zbek erkaklar raqs san'atida ijod qilgan raqqoslar tomonidan mohirona ijro etilgan, ammo ba'zi raqslar borki, ularni faqatgina barmoqlar bilan sanay oladigan darajada kam raqqoslar ijro etishgan. Shunday raqslardan biri "Dashtnavot" raqsidir. Bu raqsni juda ko'p raqqoslar ijro etishmoqchi bo'lishganu ammo maromiga etkaza olishmagan. Bunga sabab raqsning harakatlarini murakkabligida, yoki musiqa ritmlariga tushushning qiyinligida emas. Asosiy to'siq raqs dardini ochib beradigan "xarakter"da. Raqsning mana shu nozik tomoni ko'plab raqqoslarni "Dashtnavot" raqsini ijro etishdan to'sib qo'ygan. Bu raqsni mukammal darajada ijro etgan raqqos O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, raqs ustasi Narziddin Shermatovdir. "Dashtnavot" raqsini N.Shermatov buyuk raqs ustalari Isaxor Oqilov hamda Margarita Oqilovalardan o'rgandi. Raqsni ustozlardan o'rganganiga qanaot qilmagan N.Shermatov bu raqsni yanada boyitdi, raqs harakatlarini mukammallashtirdi, tog'lik yigitlarga xos bo'lgan jasoratni, qaysarlikni haddan ziyod mag'rurlikni mujassamlashtirgan holda raqs xarakterini yaratdi. Ammo bu xarakter I.Oqilov va M.Oqilovalar yaratgan raqsda bunchalik kuzatilmas edi. Balki shuning uchun bo'lsa kerak raqs xarakterini hamma raqqoslar ham ochib bera olishmagandir. Hattoki N.Shermatov qo'lida tarbiya olgan ijodkorlar ham "Dashtnavot"ni ijro etishga qiynalishgan. XX asrning oxirlarida juda ko'p marotaba ijro etilgan bu raqs kutilmaganda o'z-o'zidan ijro etilishi kamaya boshladi, hamda so'ngi o'n yil davomida deyarli ijro etilmadi desak ham bo'ladi. Biroq vaqt o'tishi bilan xalq orasidan iste'dodli yoshlar chiqib ustozlar boshlab bergan yo'lni davom ettirishdi. Manna shunday yosh raqqoslardan biri SHerzod Kenjaboevdir. Sherzod "Dashtnavot" raqsini tasmalarda yozib olingan videolardan ko'rib N.Shermatov qanday ijro etgan bo'lsa, xuddi shu holatda qaytadan o'rgana

boshladi. Sherzodning bu intilishlari kelajakda ajoyib bir raqsni qayta tiklanishiga sabab bo'ldi. Negaki, Sherzod ijrosida "Dashtnavot" raqsini nafaqat yurtimiz aholisi balki ko'pgina dunyo xalqlari ham tomosha qilishdi. Sherzod bu raqs bilan bir qancha xalqaro tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritdi. Bir vaqtlar N.Shermatov erishgan cho'qqiga xali etmagan bo'lsada, ammo bor kuch g'ayratini, shijoatini sarf qilib harakat qilmoqda. Sherzodning bu harakatlari bizning milliy erkaklar raqsimizni boyishiga yo'qolib borayotgan merosiy raqslarimiz tiklanishiga sabab bo'ladi degan umiddamiz.

Lekin ko'p afsuslar bo'lsinki, bugungi kunda barcha raqs ijodkorlari ham Sherzod singari harakat qilyapdi deya olmaymiz negaki ko'pgina raqqoslar faqatgina ijrochi bo'lib qolmoqda. Ustozlaridan o'rgangan raqslarni kelajak avlodga etkazib berishga o'z xissalarini qo'shmayapdi. Bunga birgina yuqorida keltirgan "Dashtnavot" raqsini misol tariqasida keltirishimizni o'zi kifoya. Chunki bu raqsni shu kecha kunduzda faqatgina Sherzod ijrosida ko'rishimiz mumkin. SHuning uchun ham biz raqs ijodkorlaridan faqatkina raqs ijro etishni ema, qolaversa yosh ijrochilarga avloddan- avlodga o'tib kelayotgan merosiy raqslarimizni o'rgatishi shart. Sherzod yosh bo'lishiga qaramay sekin-asta baletmeysterlik mahoratini ham o'rganib "Dashtnavot" raqsini yosh raqqos Doston Turg'unovga qaytadan sahnalashtirdi. Sherzod o'z ijrosida raqs qanday bo'lsa shu xolida ijro etgan bo'lsa, Dostonga o'zgacha usulda, ya'ni ijrochining imkoniyatidan kelib chiqqan holda sahnalashtirdi. Bu bilan u butun boshli raqsni o'zgartirdi deya olmaymiz, aksincha ba'zi bir murakkab xarakatlarni soddalashtirib ijrochiga mosladi. Bunday xarakatlardan biri "Charxi du zoni" xarakatidir. Raqqos bu harakatni bajarish uchun ikki tizzasi bilan sahna bo'ylab aylanishi kerak, aylanganda ham juda tez to'xtamasdan chirpirak bo'lib aylanishi lozim. Bunday harakat ijrochidan juda katta kuch, matonat talab qiladi. Eng asosiysi inson tizzasi bunday murakkab harakatni bajarish chog'ida og'ir shikastlanishi ham mumkin. Shuning uchun ham yosh baletmeyster bu xarakatni o'rniga tik oyog'da "Charx" harakatida aylanishni qo'lladi. Bunday aylanish ham oson emas, lekin tizzada

aylanganga qaraganda bir oz engilroq. Doston “Dashtnavot” raqsini bir necha bor ijro etdi va shu kunlarda respublikamizda o‘tkazilayotgan “Respublika yosh ijrochilar ko‘rik tanlovi”da ham shu raqs bilan qatnashdi. Qiziqarlisi shundaki, xuddi shu tanlovda Qoraqalpog‘iston Respublikasidan kelgan yosh raqqos Bayram ham “Dashtnavot” raqsini ijro etdi. Ana endi bu ikki ijrochini taqqoslaydigan bo‘lsak, biri ya’ni Doston sakkiz yildan beri Xoreografiya maktabida o‘qigan, ikkinchisi Bayram esa bor yo‘g‘i uch yil san’at kollejida raqs yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olgan. Ikkala ijrochi ham “Dashtnavot” raqsini qoyilmaqom qilib ijro etdi ammo bitta raqsni ikkita ijrochida ikki xil qiyofa kasb etdi. Doston ijrosidagi “Dashtnavot” xarakatlarning mukammalligi, har bir xarakat aniq me’yorida bajarilganligi bilan ajralib tursa, Bayram ijrosida esa shijoat, qaysarlik, raqs xarakteri ochib berilgan. Bu ikki ijrochining o‘ziga yarasha ustunlik tomoni ham kamchiliklari ham bor. Doston bilan mashg‘ulotlar olib borgan yosh ijotkor Sh.Kenjabaev tashqi xolatlarga, xarakatlar aniqligiga e’tibor berganu ammo **{balki xali yoshligi uchundir}** raqqosning ichki tuyg‘ularini uyg‘ota olmagan. Bu bilan SHerzodni ayiblamoqchi emasman, lekin xarakatlar bilan xarakter uyg‘unligi qilingan ishni boyishiga asos bo‘ladi. Dostonning qoyilmaqom ijrosi uzoq yillar davomida tinimsiz qilingan mehnatning mevasidir. Endi Bayramga keladigan bo‘lsak, bu ijodkorimiz juda qisqa fursatda “Dashtnavot” raqsini o‘rgangan ko‘rinadi. Negaki, raqs harakatlarini tanasiga mutlaqo singdirib olmaganligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Biroq bu bolaning yutug‘i shundaki, u uzoq yillik tajribaga ega bo‘lmasada, ammo yuqtirilgan is’tedod egasi ekanligi ijro etgan raqsida, bajarayotgan har bir harakatida ko‘rinib turibdi. Bayram raqs ijrosida ichki kechinmani yuzida ifodalay oldi. U qo‘ldan kelguncha xarakatlarni aniq bajarishga harakat qilar, lekin tomoshabinni uning yuzida aks etayotgan xarakter ko‘proq qiziqtirardi. Bayram Dostonga qaraganda “Dashtnavot” raqsini asliga yaqinroq ijro etdi. Murakkab bo‘lsada, “Charxe du zonu” harakatini bajardi. Bu ikki ijodkorning bir oz kamchiliklari bo‘lsada, biroq o‘zbek erkaklar raqsini rivojiga kelajakda ulkan xissa qo‘shadigan fidoiy ijodkorlar chiqishiga ishonaman.

2.2. O'ZBEK ERKAKLAR RAQSINING MUAMMOLARI

Bugungi kunga kelib, o'zbek erkaklar raqsi asta-sekin ravnaq topib borayotgan bir davrda o'ziga yarasha muammolarga ham egadir. Shu kungacha o'zbek milliy erkaklar raqs san'ati to'g'risida etarlicha ma'lumotlarga ega emasmiz. Negaki yozilgan tadqiqotlar, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar aksar xollarda raqqosalar haqida bo'lib, erkak raqqoslarimiz haqida juda kam manbalar mavjud. Bu manbalarga qaraydigan bo'lsak avvalo san'atshunoslik fanlari doktori, professor Mamajon Raxmonovning "O'zbek teatri" kitobiga murojat qilmog'imiz lozim. Chunki bu olim o'z kitobida o'zbek milliy teatri bilan bir qatorda, milliy raqsimiz haqida ham etarlicha ma'lumotlar berib o'tgan. Bu ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'zbek milliy erkaklar raqsi juda qadim zamonlardan rivojlangan. Shu bilan birgalikda M.R.Raxmonov o'z kitobida bizning milliy erkaklar raqsi haqida juda ko'p ma'lumotlarni qadim zamonlardan to XX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrni yoritib o'tgan. Ammo bu izlanishlarning barchasi teatr san'ati atrofida bo'lgan. Raqs sohasida ham topilgan har bir manba teatrga bog'lab yozilgan. Xullas raqs teatr bilan chambarchas qilib qo'yilganki bu xoldan raqs aloxida san'at turi bo'lishi dargumondek ko'rinadi. Ammo ko'p afsus bilan aytish lozimki o'zbek erkakalar raqsi haqida batafsil yozilgan qo'llanma yo'q. R.Karimova tomonidan yozilgan "Doira darsiga mashg'ulotlar" qo'llanmasi ham deyarli raqqosalarga moslashtirilgan (qo'l va oyoq xolatlarini inobatga olmagan). Bunga misol qilib "Mayin sabo", "Qiyg'ir bo'yin" va shu kabi boshqa bir qancha raqs harakatlari o'z nomi bilan ayollarga mosligi ko'rinib turibdi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki o'zbek erkaklar raqsi tarixi qisman bo'lsada o'rganilgan: raqs harakatlar amaliyoti ayrim manbalarda mavjud, lekin nazariyasi yozilmagan. Bu albatta, o'zbek erkaklar raqsining muammoli tomoni.

O'zbek milliy erkaklar raqs san'atining rivojlanishi uchun quyidagi muammo va takliflarga to'xtalib o'tish lozim.

Birinchidan - o'zbek erkaklar raqsi tarixini nazariy tomonlama qaytadan o'rganib chiqish kerak. Bu muammoni yechish uchun esa, nafaqat o'zbek, balki boshqa xalqlar olimlari tomonidan yozilgan asarlarni ham sinchiklab ko'rib chiqish, xalq orasida hozirda nafaqada bo'lgan professional va havaskor keksa raqs ustalari, rejissyorlar, arxeologlar, etnograflar, folklorshunoslar bilan ijodiy suhbatlar olib borish, hamda ulardan o'zbek erkaklar raqsi to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib olish shart.

Ikkinchidan – raqqoslar oliy ta'lim muassasasini tamomlagandan so'ng bandligini ta'minlash, ularni ishga joylash muammosi. Buning uchun esa albatta raqqoslar faoliyat yurita oladigan ansambllar bo'lmog'i lozim. Yurtimizda raqs jamoalari juda ko'p, biroq ularning hammasida ham raqqoslar ishlay oladi deya olmaymiz, chunki ko'pgina raqs jamoalari faqatgina raqqosalar uchun mo'ljallangan baletmeysteri ham ayol kishi bo'lganligi bois raqqoslarga raqs sahnalashtirishi qiyin. Buning bir yo'li yaxshi tajribaga ega bo'lgan erkak baletmeysterlarni shu ishga jalb qilib Respublikamizning har bir viloyatida, shahar va tumanlarda o'zbek erkaklar raqs ansambllari tashkil qilish joiz, shundagina Xoreografiya oliy maktabini tamomlayotgan yosh kadrlar ish bilan to'liq ta'minlanadi.

Uchinchidan – bugungi kunga kelib, o'zbek erkaklar raqslarida lokal xususiyatlar yo'qolib bormoqda. Buning oldini olish uchun esa Respublikamizning turli hududlarida ijod qilayotgan va shu viloyatni erkaklar raqslarini mukammal biladigan san'at ustalarini Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabiga ishga, yoki bir yilda ikki marta taklif qilib ular ishtrokida mahorat darslari o'tkazilishi kerak. Shundagina o'zbek erkaklar raqsining lokal xususiyatlarini saqlab qolish mumkin.

To'rtinchidan – hali yurtimizda erkaklar raqsi chuqur o'rganilmagan hududlar mavjud bo'lib, bu borada ko'proq izlanishlar olib borish kerak. Ayniqsa Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari erkaklar raqslari kelib chiqish tarixidan boshlab to shu kungacha yetib kelgan raqs turlar ularning ijro uslublari, harakatlar

xilma-xilligi, musiqalari, liboslari hamda namoyondalari to'g'risidagi ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish kerak.

Beshinchidan – umumiy o'zbek raqs san'ati manbalarini saqlaydigan muzey yoki arxiv shakllantirish kerakki, bu yerda nafaqat liboslar, balki raqs san'atiga aloqador bo'lgan har bir material (gazeta, jurnal) larda chop etilgan maqolalar, foto, video va audio materiallar saqlanishi lozim.

XULOSA

O'zbek milliy erkaklar raqsi tarixini qancha chuqur o'rgansak shuncha boy tarixga ega ekanligini, manbalarning noyobligini hamda betakror raqslar xilma-xilligini ko'rishimiz mumkin. Raqs san'ati tarixi haqida ma'lumotlar yuqorida birinchi bobda qisqacha bo'lsada yoritib o'tildi. O'zbek erkaklar raqsi tarixi, kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, asoschilari, raqs turlari, libos va musiqalari to'g'risidagi ma'lumotlar birinchi bobning birinchi bo'limida berilib, bu keltrilgan manbalarga oz bo'lsada ilmiy tomonlama fikr va mulohazalar keltirildi. Birinchi bobning ikkinchi bo'limi tanlangan mavzuning asosiy qismi bo'lganligi sababli, bu bo'limga ko'proq ma'lumotlar kiritildi. Jumladan, Respublikamiz hududida joylashgan har bir viloyatlar erkaklar raqslariga to'xtlaib o'tilib, ularning bir biridan farqi lokal xususiyatlari o'rganildi.

O'zbek milliy raqs maktablaridagi lokal xususiyatlar borasida so'z ketganida uning nihoyatda turfa va serjilo ekanligini qayd etish lozim. Farg'onacha yigitlar raqsidagi chapnilik, Surxondaryo raqsLARining o'ynoqiligi, Buxoro yigitlar raqsining salobatga ko'proq urg'u berishi, qoraqalpoq yigitLARining sho'xchanligi milliy raqs san'atimizning ulkan va rango-rang olamini aks ettiradi.

Shular ichida Farg'ona raqs maktabi o'zida Andijon va Namangan viloyatlarini qamrab olganligi bu uchta viloyat bir raqs maktabga mansub bo'lsada biroq erkaklar raqslari tubdan farq qilishi, ayniqsa raqsLAR jarayonida raqqoslarning oyoq harakatlari uch viloyatniki uch xil ekani, musiqa retmiga ham har xil tushishi o'rganilib chiqildi va kerakli manbalar bilan asoslandi. Bu borada ijod qilgan raqs ustalari hayoti va ijodiy faoliyati o'rganilib, hozirda hayot bo'lgan raqs ustalari bilan ijodiy uchrashuvlar natijasida yig'ilgan ma'lumotlar asosida fikr va mulohazalar keltirib o'tildi. Jumladan, Farg'ona erkaklar raqsLARining mohir ijrochisi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Erkin Qaxxorov bilan ijodiy uchrashuv uyushtirib raqqosning Farg'ona erkaklar raqsi borasidagi fikrlari olindi. Shu bilan bir qatorda Andijon viloyatiga ijodiy safar uyushtirilib sobiq "Andijon polkasi" raqs ansambli ijodkorlari bilan uchrashildi hamda ulardan Andijon

erkaklar raqsi to'g'risidagi fikrlar, foto va video materiallar olindi. Bu manbalar ilovada keltirilib o'tiladi. Shu ijodiy safar davomida Farg'ona va Namangan erkaklar raqs ustalari bilan ham uchrashilib ulardan kerakli noyob ma'lumotlar olindi. Yoritilayotgan ishda voqea erkaklar raqsi to'g'risida ma'lumotlar kamligi, bu borada ko'proq tadqiqotlar olib borish kerakligi ma'lum bo'ldi hamda qo'ldan kelguncha izlanishlar olib borildi. Yig'ilgan ma'lumotlarning aksariyat qismi ijodiy uchrashuvlar jarayonida olingan intervyular asosida yozildi.

Bugungi kun zamonaviy badiiy jarayonlarida eng ko'p ijro etiladigan o'zbek erkaklar raqslari soni sanoqlidir. Bular "Dilxiroj", "Qarg'alar", "Lagan", "Cho'pon", "Yigitlar", "Farg'onacha yoshlar raqsi", "Andijon polkasi", "Lazgi" raqslaridan iborat. Shu bilan bir qatorda ayrim viloyatlarda hududlarga xos lokal xususiyatlarni ko'rsatuvchi folklor raqslari ham ijro etib kelinmoqdaki, bu nihoyatda muhimdir. Zero, folklor zaminida asliylik, muayyan hududning o'ziga xosligi yotadi, uni chuqur o'zlashtirilishi esa o'zbek millatiga xos bo'lgan rang-baranglikni o'rganish lozimdir.

Ikkinchi bobda shu kunlarda yurtimizda kundan kunga ravnaq topib borayotgan o'zbek erkaklar raqsi haqida yozib o'tilgan bo'lib, bunda asosan "Buxoro jilolari" raqs ko'rik tanlovi, bu tanlovda ishtirok etgan yosh ijrochilar T.Abdullayev va Sh.Kenjabayevlar ijodi xaqida to'xtalib o'tilgan. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda Respublikamizda ijod qilayotgan raqs ustalari va ularning o'zbek erkaklar raqs san'atiga qo'shayotgan xissasi hamda sahnalashtirilgan yangi erkaklar raqsi xususida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

Bugungi kunda erkaklar raqsidagi milliy qadriyatlarni saqlab qolish hamda milliy an'analar asosida ish olib borishda qilinadigan ishlar talaygina. Bular orasida raqqos yigitlarni tarbiyalash, deyarli unutilayozgan raqslarni qayta tiklab, sayqal berish yohud ularni jonlantirish kabi ishlar alohida o'rin egallaydi. Mazkur ishlarning oldingi safida yigitlar raqsi taraqqiyoti uchun shart-sharoit yaratib berish vazifasi turadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida erkaklar raqsida bir qadar rivojlanish ishlari boshlandi. Bunga milliy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tibor, o'zlikni anglash, unutilayozgan qadriyatlarimizni qayta tiklash ishlari asos bo'ldi. Mamlakatning bosh maydonida uyushtiriladigan bayram tadbirlari, Navro'z va Mustaqillik tantanalarida har bitta viloyatga xos lokal xususiyatlarni ko'rsatishda ayniqsa yigitlar raqsidan keng foydalanildi. O'zbek yigitlarining milliy o'ziga xos xususiyatlari, xarakterli ko'rinishlarini aks ettirgan ommaviy raqslar mazkur bayramlarda keng ijro etila bordi.

Ikkinchi bobning birinchi bo'limida o'zbek erkaklar raqslarida milliy qadriyatlarning qay darajada saqlanib kelinayotganligi xususida ma'lumotlar yoritilgan bo'lib ayniqsa "Dilhiroj", "Lagan" va "Dashnovot" raqlari, ularni ijro etgan raqqoslar, raqs harakatlari hamda liboslari xususida batafsil to'xtalib o'tilgan. Bu bo'limda o'zbek erkaklar raqsida milliy qadriyatlar to'g'risida ularning shakllanishi, avloddan-avlodga o'tib kelishi, har bir davr vorislari milliy qadriyatlarimizni qay darajada saqlay olganligi, o'ziga xosligi va ularning bir - biridan ustunlik tomonlari, kamchiliklari, ijro etgan raqlari hamda o'zbek erkaklar raqsida milliy qadriyatlarimizni saqlanib kelishiga hissasini qo'shib kelayotgan san'atkorlar haqida batafsil yoritib o'tiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo'limi bugungi kunda o'zbek erkaklar raqsida uchraydigan muommolar to'g'risida bo'lib, bu bo'limda bugungi kunda kuzatilayotgan muommolar va ularning yechimlari to'g'risida fikr va takliflar berib o'tilgan.

O'zbek milliy erkaklar raqsida ham yigitlarimizning chapniligi, mardligi, mag'rurligi o'z aksini topgan. Shunday ekan, milliy erkaklar raqsiga o'ziga xos qadriyat sifatida qarash, alohida e'tibor berish nihoyatda muhimdir. O'zbek milliy erkaklar raqs san'ati istiqbolini o'ylash nafaqat raqqos va baletmeysterlar, balki soha mutassadilari, tashkilotchilarning ham zimmasida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2012.- 40 b.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. 7-oktyabr 2013-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni, 1997-yil 8-yanvar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi 1997-y. 1-son, 26-28 betlar.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi"ni tasdiqlash to'g'risida 222-sonli Qarori. 2010-yil oktyabr.
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori. 2017-yil 31-may PQ-3022 . "Xalq so'zi" gazetasi 1-iyun, 2017-y.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 3.1.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: "O'zbekiston", 2000.
- 3.2.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008. 176 b.

3.3.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.// “O‘zbekiston ovozi” gazetasi 1998-y. 22-avgust.

3.4. Karimov I. A. Istiqlol va ma’naviyat. – T.: “O‘zbekiston”, 1994.-160 b.

3.5. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. 304 b.

3.6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O‘zbekiston”, 2017.

3.7. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.

3.8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.

IV. Asosiy adabiyotlar

4.1. Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi. Qadim zamonlardan XIX asrga qadar.- Toshkent: Fan, 1975 y. 170 b.

4.2.Avdeyeva L.A. O‘zbek milliy raqsi tarixidan - T.: M.Turg‘unboyeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi, 2001.

4.3. Avdeyeva L.A. Muhitdin Kari-Yakubov. (dokumentalnaya monografiya). T.:Izdatelstvo literatury i iskusstva imeni Gafura Gulyama, 1984.

4.4. Avdeyeva L.A. Mukaramma Turg‘unboyevaning raqsi -T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.

4.5. Avdeyeva L.A. Tansevalnoe iskusstvo Uzbekistana. –T.: GIXL, 1966.

4.6. Qodirov M. O‘zbek xalq tomoshalari. - T: O‘qituvchi. 1981.

4.7. Qodirov M. Temur va temuriylar davrida tomosha san’atlari. Toshkent:1997.y. 192-193.b

- 4.8. Qodirov M. An'anaviy teatr tarixi. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1975.
- 4.9. To'ra Qilichev Xorazm xalq teatri Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent. 1988.
- 4.10. Qodirov M. Yusufjon qiziq ijodi. – Toshkent: O'zbekiston, 1969.
- 4.11. Nurjanov N. Tadjikskiy teatr. (Pod.red. prof. G.Goyana) – M.: Iskusstvo, 1988. –
- 4.12. Karimova R. Buxarskiy tanets (metodicheskoe posobie). –T.: Izdatelstvo literatury i iskusstva imeni Gafura Gulyama, 1977.
- 4.13. Karimova R. Uzbekskie tansы v postanovke Isaxara Akilova - T.: Izdatelstvo literatury i iskusstva imeni Gafura Gulyama , 1987.
- 4.14. Karimova R. Xarezmskiy tanets . –T.: Izdatelstvo literatury i iskusstva imeni Gafura Gulyama, 1975 .
- 4.15. Karimova R. Tansы Ravii Atadjonovoy –T.: Izdatelstvo literatury i isskustva imeni Gafura Gulyama , 1983 .
- 4.16. Karimova R., Sobirova F. Nursafardiya harakatlar tizimida o'zbek milliy raqslari va jangovor o'yinlari. –T.: «Lider Gress» nashriyoti, 2008.
- 4.17. Sayfullayeva D., Kazakbayeva Z. O'zbekraqs san'ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari. - T.: «Voris -Nashriyoti» M.CH.J. 2006.
- 4.18. Petrosova E.A. Karakalpakskiy tanets. Metodicheskoe posobie. - T.: Izdatelstvo literatury i iskusstva imeni Gafura Gulyama, 1976.
- 4.19. Muxamedova. O'. Uyg'ur xalq raqsi –T.:“Fan”, 2009.
- 4.20. Abraykulova N. Raqs jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003.
- 4.21. Ahmedova M. Margarita Oqilova.Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti,- 1985.
- 4.22. V.Kojinov. “San'at turlari” Toshkent – 1962. 58.

4.23. G.Matyokubova “Ofatijon lazgi” Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1993.

4.24. M.Ahmedov “Isoxor Oqilov” G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1975.y.

4.25. Petrosova E.A. “Karakalpakskiy tanets” Tashkent . 1976 g.

V. Qo‘shimcha adabiyotlar

5.1. Sbornik nauchnykh trudov Tashkentskoy gosudarstvennoy vysshey shkolы natsionalnogo tansa i xoreografii -.T.: “Star-poligraf”XF bosmaxonasida bosildi. - 2009. 95-B.

5.2. Globallashuv jarayonida xoreografiya san’ati sohasida milliylikni saqlash muammolari. Respublika milliy –amaliy anjumani materiallari to‘plami-T.: Iqtisod –moliya , 2012, 143b.

5.3. Shokirov U., Ashrafiy F., Shokirova I. O‘zbekiston madaniyati namoyandalari. (mo‘jaz ijodiy chizgilar).–T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 174b.

5.4. Mukaramma Turg‘unboyeva ijodi va uning o‘zbek sahna xoreografiyasi rivoji uchun qo‘shgan hissasi. Ilmiy amaliy anjumani materiallari .-T.: “Mumtoz soz” nashriyoti, 2014. 223b.

5.5. O‘zbek xoreografiya san’atida vorislik san’ati. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. –T.: “Mumtoz so‘z”, 2015.

5.6. Matyokubova R. Lazgi –T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti 1993. 62b.

5.7. Tamara Xanum. Moya jizn -T. : Izdatelstvo natsionalnoy biblioteki Uzbekistana im A. Navoi, 2009.

5.8. Avdeyeva L. Traditsii i novatorstvo uzbekskoy xoreografii. Avtoreferat. Tashkent: 1965.

- 5.9. Shuhrat Rizayev. Jadid dramasi. Sharq nashriyoti. Toshkent. 1997.y.
- 5.10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1.t. Moskva. “Rus tili” nashriyoti. R.1981.

VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

- 6.1.Kodirov M. Raqqosa, baletmeyster, pedagog. /Teatr. – T.:2012. - №5-B . 16-17.
- 6.2.Lutfullayev X. Qo‘shiq raqsga bog‘lansa. /Teatr-Toshkent , 2013-№6-B-11.
- 6.3. Ribar I. Uzbekskiy tanets: Put k vrozrojdenuyu.// Pravda Vostoka.-Tashkent, 2013.- №27 (27477). –B. 4-5.
- 6.4. Paxrudinova K. “Tanavor” so‘zsiz qo‘shiq. //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. –Toshkent. 2015-№8 (4303).-B.5.
- 6.5. Saydaliyev K. Energiya dvijeniya v tanets. //Narodnoe slovo.- Tashkent, 2015 -№9 (6162) .-B-4.
- 6.6. Mo`minova N . Za vneshney legkostyu pareniya. “Uzbekistan today”. – Tashkent, 2014-№22 (405)-B-7.
- 6.7. Turg‘unboyeva M. Raqs raqsga ulandi. //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. - Toshkent 2015-№23 (4318). –B-5.
- 6.8. Abdumalik Abduraxmonov (1991 yil 10 may. Toshkent oqshomi)

VII.Internet saytlari

- 7.1. www.uza.uz
- 7.2. www.ziynet.uz
- 7.3.www.infocom.uz
- 7.4. www.uzreport.com

7.5. [www.tashkent.uz/.ethnobeat.ru/ img / instr / oud / main. jpg /](http://www.tashkent.uz/.ethnobeat.ru/img/instr/oud/main.jpg)


7.6. www.muzik.uz

7.7. www.kultura.uz

ILOVA

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Akbar Mo'menov bilan uchrashuv

11.07.2017



**O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Narziddin Shermatov bilan
uchrashuv**

08.05.2017



“Dashnovot” raqsi



“Cho’pon” raqsi


Sobiq “Andijon polkasi” raqs ansambili ijodiy gurihi bilan uchrashuv

12.10.2016



Qaxxor Qodero bilan suxbat 12.10.2016

**Sobiq “Andijon polkasi” baletmestiri Abdug’offor Qoderov ijodidan foto
lavxalar**



O'zbekiston xalq artisti Gavxar Matyoqubova bilan suhbat

06.03.2017



“Masqaraboz” lazgisi



“O'g'lon bola” lazgisi

**O'zbekiston xalq artisti Qodir Mo'menov va O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan artist Erkin Qaxxorov bilan ijodiy uchrashuv**

06.04.2018



“Qarg’alar” raqsi

“Lagan” raqsi



**O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artest Erkin Qaxxarov bilan Farg'onada
ijodiy safarda**

**O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Uchqun G'aneyev farzandlari bilan
uchrashuv. U.G'aneyev ijodidan foto lavxalar.**

24.09.2016



“Baliqchi” raqsi



“Cho’pon” raqsi




**O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Shokir Ahmedov bilan
suhbat
17.06.2018**





“Olov yigitlar” raqsi mashg’ulotlari



Ijodkor mashg’ulotlar jarayoni

Farg'onacha "Olov yigitlar" raqsi



**Taniqli raqqos, zikr raqsining mohir ijrochisi Sashar Zarepov bilan ijodiy
uchrashuv**

15.11.2017



O'zbek erkaklar raqsining ustasi Tursun Giyosov bilan suxbat

20.07.2016



Ustozlar bilan ijodiy uchrashuv

28.03.2018

